

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 75 (1136), 2024-yil 19-aprel, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## O‘ZBEKISTON VA TOJIKISTON O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK YANGI BOSQICHGA KO‘TARILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-aprel kuni davlat tashrifi bilan Dushanbe shahriga keldi.



O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari nafaqat qo‘shni, balki asrlar davomida qondosh-u qardosh bo‘lib, bir buloqdan suv ichib, bir havodan nafas olib, yagona osmon ostida buniyodkorlik ishlari bilan shug‘ullanib kelgan, yaxshiy yomon kunlarda yelkama-yelka turib, qiyinchiliklarni yengib o‘tgan. Yagona din, o‘xshash madaniyat, urf-odat va an‘analar bir-biriga mustahkam bog‘lab turadi.

Prezidentlarning siyosiy irodasi va uzoqni ko‘zlab yuritayotgan oqilona siyosati tufayli keyingi yillarda mamlakatlarimizning ko‘p qirrali hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi, xalqlarimiz do‘stligi yanada mustahkamlandi.

Poytaxt aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi va ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi. O‘zbekiston Prezidentini kutib olishda Tojikiston yoshlari va ijodiy jamoalari vakillari ham qatnashdi.

So‘ng Prezidentimiz “Do‘stiy” maydoniga tashrif buyurib, Ismoil Somoniy haykali poyiga gul qo‘ydi.

Dushanbedagi “Qasri Millat” qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘ldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Ikki davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini bir-biriga tanishtirdilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon tor doirada uchrashuv o‘tkazdi.

Siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Yetakchilar Markaziy Osiyoning manfaatlarini ilgari surish va uning barqaror taraqqiyotini ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlarini birlashtirish maqsadida mintaqaviy tuzilmalar va xalqaro tashkilotlar doirasida konstruktiv hamkorlikni bundan buyon ham davom ettirishga intilishlarini tasdiqladilar.

Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi tarixiy shartnomaning imzolanishi O‘zbekiston — Tojikiston munosabatlarida sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tish ekanini ta‘kidlandi.

Shu ma‘noda, ittifoqchilik munosabatlarining salohiyatini ro‘yobga chiqarish barcha darajalardagi muloqotlar natijadorligini oshirishni taqozo etishi qayd etildi.

Ta‘kidlash joizki, oxirgi yillarda tovar ayirboshlash hajmi 40 barobar o‘tdi. Qo‘shma korxonalar soni 15 barobar ko‘paydi.

Hukumatlar oldiga tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish, shu jumladan, o‘zaro mahsulot yetkazib berish nomenklaturasini kengaytirish, chegaraldagi savdo zonalarini tezkor ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Tashrif arafasida O‘zbekiston — Tojikiston biznes-forumi muvaffaqiyatli o‘tkazilgan bo‘lib, uning yakunida yangi kooperatsiya loyihalari va savdo shartnomalarining katta portfeli shakllantirildi.

Mashinasozlik, elektrotexnika, energetika, konchilik, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik va farmatsevtika tarmoqlaridagi o‘zaro manfaatli loyihalar shular jumlasidan.

Tomonlar kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha aniq rejalarini ham belgilab oldilar. Shu maqsadda qo‘shma Investitsiya kompaniyasining salohiyatidan foydalaniladi.

Madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish muhimligi qayd etildi. Kinotomosalar, konsertlar, spektakllar, ko‘rgazmalar va yoshlar forumlari muntazam o‘tkazilishi ta‘kidlandi. Ta‘lim sohasidagi

hamkorlikni kengaytirish, hamyonbop turizm dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari Prezident Emomali Rahmonni o‘ziga qulay bo‘lgan vaqtda O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida yanada chuqurlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Keyingi yillarda oliy darajadagi o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlash ruhidagi faol muloqot natijasida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar misli ko‘rilmagan yuqori darajaga ko‘tarildi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bilan birga, keng ko‘lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va katta imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Bugun imzolananayotgan Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi tarixiy shartnomani amalga oshirish uchun barcha darajalarda — parlamentlar, hukumatlar, tashqi siyosiy idoralar, vazirlik va hududlar o‘rtasidagi muloqotlar samaradorligini oshirish lozim, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentlar chuqur sanoat kooperatsiyasini rag‘batlantirish uchun energetika, elektrotexnika, metallurgiya, qazib chiqarish, to‘qimachilik, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda muhim loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo‘yicha qat‘iy kelishuvlarga erishilganini olqishladilar.

Suvdan foydalanish masalalarida konstruktiv va o‘zaro manfaatli muloqotni davom ettirish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz hududlararo hamkorlik uchun katta salohiyatdan samarali foydalanish, tashrif doirasida erishilgan bitim va kelishuvlarni to‘liq amalga oshirish muhimligini qayd etdi.

Transport va tranzit tashishlar sohasidagi hamkorlik strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Prezidentlar bu borada o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish hamda havo va temir yo‘llari orqali tashishlarni rivojlantirish, tranzit yuk tashishlar hajmini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishni qo‘llab-quvvatladilar.

Tomonlar madaniy-gumanitar almashinuvni yanada faol qo‘llab-quvvatlashga ahdlashib oldilar.

Zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashishda yaqin aloqalarni davom ettirish, Afg‘onistonda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni ilgari surish muhimligi ta‘kidlandi.

Mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyorlik bildirildi.

Yig‘ilish davomida Bosh vazirlar o‘rinbosarlari, transport, energetika va qishloq xo‘jaligi vazirlarining kun tartibi yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash hamda erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishga toshiriq berildilar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon Ittifoqchilik munosabatlarini to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar.

Bundan tashqari, davlat rahbarlari huzurida ikki tomonlama hujjatlarini almashish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Umuman, tashrif davomida O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab oluvchi 28 ta hujjat, jumladan:

— Sanoat sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Sanoat mulkini muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Fanlar akademiyalari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari, xalqaro avtomobil va aviatsiya qatnovlari to‘g‘risidagi bitimlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida bayonnomalar;

— Veterinariya va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi sohasida hamkorlik to‘g‘risida bayonnomaga;

— Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish idoralari o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomaga;

— madaniyat va turizm sohasidagi hamkorlik, agrosanoat majmuuidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni;

— Andijon, Namangan, Sirdaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyatlari va So‘g‘d viloyati, Qashqadaryo viloyati va Xatlon viloyati o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitimlar va 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”ni hamda boshqa hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon mush-

tarak tarixiy meros, ma‘naviy qadriyat va an‘analarimizni asrab-avaylash va targ‘ib qilish bo‘yicha samarali faoliyati, shuningdek, birodar xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga qo‘shgan munosib hisssasi uchun ikki mamlakat madaniyat va san‘at arboblarning bir guruhiga faxriy unvonlar berildilar.

Mamlakatimiz yetakchisining davlat tashrifi doirasida ushbu unvonlar bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tojikiston milliy konservatoriyasi rektori Mirali Do‘stzoda, Tojikiston milliy konservatoriyasi dotsenti Ismoil Nazriyev, Tojikiston Hukumatida huzuridagi Televideeniye va radio qo‘mtasining F.Shaxobov nomidagi “Shashmaqom” ansambli rahbari Furqat Saidzoda, Bobojon G‘afurov tumani “Shashmaqom” ansambli rahbari To‘lqin Tojiboyev, A.Jo‘rayev nomidagi Tojikiston davlat filarmoniyasi “Falak” ansambli badiiy rahbari Rahmatullo Hoshimov “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston milliy musiqa san‘ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasida professori Munojatxon Yo‘lchiyeva, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi “Lazgi” ashula va raqs ansambli badiiy rahbari Og‘abek Sobirov va xonanda Yulduz Usmonovaga “Tojikiston xalq hozifi” faxriy unvoni, O‘zbekiston milliy akademik drama teatri direktori Yodgor Sa‘diyeva “Tojikiston xalq artisti” faxriy unvoni berildi.

Davlat rahbarlari faxriy unvonlar nishonlarini o‘z sohiblariga tantanali ravishda topshirdilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon oliy darajadagi muzokaralardan so‘ng ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot bilan chiqdilar.

O‘zbekiston Prezidenti Tojikiston Prezidenti va xalqiga har doimgidek iliq va samimiy qabul uchun dildan minnatdorlik bildirdi.

Tomonlar do‘stlik va ishonch muhitida o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlarini yuksak baholadilar.

— Yana bir bor ta‘kidlayman, Tojikiston O‘zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli, asrlar bilan sinalgan strategik sherikdir. Birodar o‘zbek va tojik xalqlari ko‘p asrlik do‘stlik rishtalari bilan chambarchas bog‘langan. Bizni umumiy tarix, madaniy va ma‘naviy qadriyatlar, an‘ana va urf-odatlar birlashtirib turadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Qardosh xalqlarimizning tub manfaatlariga to‘liq mos bo‘lgan Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi ushbu tashrifning chinakam tarixiy natijasi bo‘lgani qayd etildi:

— Bu qadam bilan O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali strategik sheriklik va ittifoqchilikni chuqurlashtirish bo‘yicha ortga qaytmas yo‘ldan yurishga qat‘iy intilishimizni tasdiqladik. Ushbu muhim hujjat, hech mubolag‘asiz, ikki tomonlama munosabatlarida yangi tarixiy davri anglatadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Savdo va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.

Keyingi yillarda bir necha o‘n karra ko‘paygan tovar ayirboshlash barqaror o‘sib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ikki mamlakat hukumatlari oldiga tovar ayirboshlashni, shu jumladan, uchinchi mam-

laktardan importning o‘rmini faol to‘ldirish orqali 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Kuni kecha o‘tgan biznes-forumida salmoqli shartnomalar va bitimlar to‘plami imzolangan ushbu maqsadga xizmat qiladi.

Shuningdek, “Oybek — Fotexobod” chegaraldagi erkin savdo zonasini va “Andarxon” savdo-logistika markazini tashkil etish ishlarini jadallashtirish muhimligi ta‘kidlandi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar chog‘ida sanoat kooperatsiyasida, eng avvalo, ikki mamlakat bir-birini to‘ldirib turgan an‘anaviy tarmoqlarda yangi o‘sish nuqtalari belgilab olindi.

Mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, metallurgiya, qazib chiqarish, to‘qimachilik, farmatsevtika, agrosanoat va boshqa ustuvor tarmoqlardagi qo‘shma loyihalar shular jumlasidan.

Bunday muhim loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston — Tojikiston investitsiya kompaniyasining salohiyatidan samarali foydalaniladi.

Suv-energetika sohasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratildi. Transchegaraviy suv resurslaridan birgalikda foydalanish sohasida konstruktiv hamkorlikni davom ettirishga tayyorlik bildirildi.

Hamkorlikning yana bir strategik yo‘nalishi — ikki mamlakat transport-tranzit salohiyatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Yo‘lovchi va yuklar tashish hajmini oshirish, zamonaviy chegaraldagi va bo‘xona infratuzilmasini yaratish bo‘yicha qo‘shma choralar ko‘riladi.

Hududlararo hamkorlik salohiyatini faol ishga solish zarurligi qayd etildi.

Ko‘rgazmalar, teatrlarning ijodiy safarlari, yoshlar va ta‘lim forumlarini muntazam o‘tkazish, sport dasturlarini amalga oshirish, turizm xizmatlarini kengaytirish orqali madaniy-gumanitar almashinuvni chuqurlashtirish masalalari muzokaralardan muhim o‘rin egalladi.

Tomonlar ushbu tarixiy tashrif, uning samarali natijalari va imzolangan muhim hujjatlar ikki mamlakatning jadal taraqqiyotiga xizmat qilishi, birodar O‘zbekiston va Tojikiston xalqlarining umumiy farovonligini ta‘minlashga ishonch bildirdilar.

Dushanbe shahridagi “Ko‘hi Borbad” san‘at saroyida O‘zbekiston va Tojikiston san‘at ustalari ishtirokida “Do‘stlik oqshomi” bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon konsertni birgalikda tomosha qildilar.

Ikki mamlakat san‘at ustalarining bunday konsertlari xalqlarimiz o‘rtasidagi abadiy va samimiy do‘stlikni ifodalovchi yaxshi an‘ana aylangan. Zero, mehr-oqibali bo‘lish, tinch-totuv yashash — xalqlarimizning azaliy orzu va samimiy intilishidir. Bugun ushbu orzu-intilishlar hayotga ko‘chmoqda, mamlakatlarimiz yetakchilarining irodasi va sa‘y-harakatlari tufayli xalqlarimiz yanada yaqinlashdi, davlatlararo munosabatlar ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi.

Bu jihatlar bugungi konsert dasturida yana bir bor tasdiqlandi. Iste‘dodli san‘atkorlar ijro etgan kuy-qo‘shiqlarda xalqlarimiz madaniyatining boyligi, o‘ziga xosligi va shu bilan birga, mushtarakligi o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

## Nuqtayi nazar

## IJTIMOIY DAVLAT NEGIZI

## OILA – JAMIYATNING BOSHLANG‘ICH HUYAYRASI

Qadimda yovdan himoyalash uchun baland qo‘rg‘onlar, mustahkam qal‘alar barpo etilgan. Bugungi kunimizgacha saqlanib kelgan ba‘zi istehkamlarni o‘sha davr nuqtayi nazaridan ishg‘ol etish imkonsiz bo‘lgan. Ammo tarix eng mustahkam qal‘alar ham dushman tomonidan aksariyat holatlarda bir emas, bir necha marotaba zabt etilganidan guvohlik beradi. Bunday hollarda baland himoya devorlari bilan o‘ralgan shaharlar “ichkari”dan ochib berilgan.

Ko‘plab tarixiy janglarda yovga oson mag‘lub bo‘lish, pirovardida mustamlakachilik va og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga sabab bo‘lgan “ichkari”dan ochilish, shubhasiz, sotqinlikdir. Vatani, xalqi, o‘zi yashayotgan qo‘rg‘onga xiyonat bir qarashda sotqinlik, kengroq olib qaralganda esa ichki bo‘linishdir.

Hozir biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan mavzumiz buning aksi — birlik va hamjihatlik haqida, yanayam aniqroq aytganda, jamiyat bir butunligining asosi bo‘lgan oila to‘g‘risida.

Oila — kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas‘uliyat hamda o‘zaro

yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. “Jamiyat” va “oila” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo‘lmisligi hamda o‘z navbatida, oilaning muayyan jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadi. Oila hamda jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liq.

Davomi 3-betda

## DAVLAT BUDJETI

MOLIYAVIY TIZIMNING ASOSIY BO‘G‘INI yaqin muddatda daromadga yarasha buromad asosida ishlashga o‘tadi(mi?) 4



# ERKIN IQTISODIYOT

## XUSUSIY BIZNES VA TADBIRKORLIKKA E'TIBOR SAMARASI

**Qahhor JUMAYEV,**  
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti  
yetakchi ilmiy xodimi

Mamlakatimizda ish bilan band aholining 80 foizdan ortig'i xususiy sektor ulushiga to'g'ri kelmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi esa 52 foizga teng. Ushbu raqamlar biznes va tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega ekanini namoyon etadi. Shu bois, biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratilib, sohaning huquqiy va tashkiliy asoslari yil sayin takomillashtirilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida ham biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Joriy davlat dasturining 98 ta bandi bevosita iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu boradagi ishlar ko'lami va izchilligidan dalolat beradi.

Hujjatda O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali mamlakatni mintaqaviy ay-ti xabga aylantirish ko'zda tutilgan. Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini

barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish va bank xizmatlari bozori hajmini oshirish chora-tadbirlari belgilangan. Monopol sohalarni bozor

tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish kabi yo'nalishlarda qator qo'shimcha qulaylik va yengilliklar nazarda tutilgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiyaviy qulaylik va jozibadorlikni yanada oshirish vazifasi belgilangan. Unga ko'ra, 2024-yil may oyida poytaxtimizda uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi hamda Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi majlisi o'tkazildi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya va Shvetsiya kabi davlatlarning salohiyatli kompaniyalari bilan tasdiqlangan reja asosida uchrashuvlar o'tkazish ham ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, joriy yil davomida iqtisodiyotimizga 1 milliard dollarlik grant mablag'larini jalb qilish bo'yicha kelishuvlarga erishish (bitim va memorandumlar imzolash), 309 ta yirik ishlab chiqarish obyekti va quvvatini ishga tushirish orqali 36 mingta yangi ish o'rni tashkil etish belgilangan. Shu maqsadda 41 ta istiqbolli loyiha bo'yicha dastlabki hisob-kitoblar va loyihaoldi hujjatlarni ishlab chiqib, xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlariga taqdimot qilish rejalashtirilgan.

Eksportni rag'batlantirish va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlari bilan yangi vazifalar, chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa sohani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi ham o'z o'rniga ega. Ushbu dastur yurtda eksport rivojiga o'ziga xos turtki bo'lmoqda.

Jumladan, 2023-yilda respublika eksporti (maxsus eksportsiz) 16,2 milliard dollari, o'sish 104 foizni tashkil etdi. Hozirgi kunda dasturni kengaytirish, unda qamrab olinadigan korxonalar sonini 500 taga yetkazish bo'yicha tegishli choralar ko'rilmogda.

Joriy yilda ham milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish hamda tovar va xizmatlar eksporti hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalarni bajarish nazarda

tutilgan. "Eksport akselektor" dasturini ishlab chiqish va ishga tushirish, "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish shular jumlasidan. Yangi xalqaro standartlarni amaliyotga kiritish hamda 822 ta korxonada xalqaro standartlarni joriy qilish orqali eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini oshirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan O'zbekiston mahsulotlari uchun sertifikat, boj va yig'implarni yumshatish bo'yicha muzokaralar o'tkazish vazifalari belgilangan.

Yurtimizda xizmat ko'rsatish sohasi yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda va aholi bandligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Joriy yilda bu yo'nalishdagi ishlar yanada kengayadi.

Xususan, o'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p tumanlarda zamonaviy xizmatlar rivojlantirildi, xizmat ko'rsatish sohasida 10 mingta savdo-servis obyekti tashkil etiladi. Shuningdek, aholi gavjum ko'chalarda savdo, sayilgoh va maishiy-ko'ngilochar xizmatlarni rivojlantirish uchun bo'sh yer maydonlari auktsion savdolariga chiqariladi. Yangi xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish uchun 2,2 mingta yer (lot) maydoni ham auktsion savdolariga qo'yiladi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida turizmning o'rni tobora kengaymoqda. Mutaxassislar ta'kidlashicha, turizmdan topilgan daromadning 30 foizi odamlar qo'lga olish uchun qo'llab-quvvatlash va boshqa tarmoqlarda bu 10 foizdan oshmaydi. Yaratilayotgan har bir yangi ish o'rni boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi.

Ana shu jihatlardan kelib chiqib, davlat dasturida iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy shartlardan biri sifatida tashqi va ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun keng sharoit yaratishga alohida ahamiyat berilgan. 2024-yilda xorijiy sayyohlar sonini 10,5 millionga, turizm xizmatlari eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilgan. Jumladan, tibbiyot va ta'lim turizmi eksporti yiliga 200 million dollarga yetkazilib, bunda xorijiy davlatlarda O'zbekistonning turizm salohiyatini keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, "mehmonxona — transport — turoperator — savdo va servis" korxonalarining kooperatsiyasi asosida faoliyat yuritadigan 4 ta yirik turizm klasteri (majmuasi)ni tashkil etish va bu orqali hududlarda 600 ta yangi mehmonxona, mehmon uylari va xostellar tashkil etish rejalangan.

Shu bilan birga, dastur doirasida Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari tuman va

shaharlarini bog'lovchi "Oltin vodiylar sayyohlik halqasi", Xorazm va Qoraqalpog'iston bo'yab "Qal'alar halqasi" kabi yangi turistik yo'nalishlar tashkil qilinadi. Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan bunday chora-tadbirlar tadbirkorlik imkoniyati kengayishi hamda iqtisodiyot yuksalishiga xizmat qiladi.

Banklarning kredit siyosatini isloh qilish ham davlat dasturida nazarda tutilgan muhim vazifalardan biri. Xususan, banklarda tijorat kreditlari foiz stavkasini 2-3 foiz kamaytirish, "yashil kreditlar"ni jalb qilish va moliya bozorini tartibga solishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy qilish lozim. Shuningdek, muammoli kreditlarning oldini olish va salmog'ini kamaytirish maqsadida banklar kredit siyosatiga o'zgartirish kiritish, kreditlash mezonlari (iqtisodiy asoslarni, qarz yuki va ta'minotiga qo'yilgan minimal talablarni) qayta ko'rib chiqish belgilangan. O'z navbatida, banklarda kredit foiz stavkalari kamaytirilishi tadbirkorlik subyektlari uchun muhim ijobiy o'zgarish bo'ladi, ularga mablag'larini tejash va daromadini ko'paytirish imkonini beradi.

Davlat dasturi doirasida hududlarda sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Hududlar imkoniyatidan kelib chiqib, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun yangi investitsiyaviy loyiha takliflari tayyorlash lozim. Bunda hududlarning mavjud xomashyo salohiyati va imkoniyatini chuqur tahlil qilish orqali yirik, o'rta va kichik loyihalarni ro'yxatini shakllantirish, konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda biznes-rejalar ishlab chiqish kerak. Yangi loyiha takliflarini xorijiy va mahalliy investorlarga taqdim qilish hamda ularni ishga tushirish bo'yicha amaliy ishlarni boshlash shular jumlasidan.

Hududlarda sanoat tarmog'ini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga qimmatbaho, rangli, noyob metallar hamda noruda kon va uchastkalariga (jami 200 ta) yer qo'ldan foydalanish uchun ruxsatnomalarni shaffof mexanizm asosida onlayn auktsion orqali taklif etish nazarda tutilgan.

Xulosa o'rinda aytish mumkin, davlat dasturi doirasida biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha nazarda tutilgan chora-tadbirlar tadbirkorlik sohasini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, ish o'rnlari yaratish hamda xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bularning barchasi pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## Mehrli siyosat

**Zuhra Jumaniyozova turmush o'rtog'i va 4 farzandi bilan 12 yil ijarada yashadi. Bir topgani biriga yetmay, hayot zarbalaridan qattiq qiynaldi. Boz ustiga, katta qizi II guruh nogironi, uning yonidan bir qadam chiqishi qiyin. Turmush o'rtog'i Ahmed Kalillayev bilan nimalar qilmadi deysiz. Rossiyada ishlashdi. Farzandlari ham shu mamlakat maktablarida o'qidi. Biroq biri ikki bo'ladi. Topgani kundalik turmushidan ortmadi.**

## KAMBAG'ALLIKDAN CHIQRARISH KLASTERI

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Xo'jayli tumanida barpo etilgan ijtimoiy shaharcha Zuhra singari 300 dan ortiq kishining mushkulini osonlashtirdi.

— Hayot insonni turli yo'llar bilan sinab ko'rar ekan. Faqat yaxshi niyat qilib, oldinga intilish kerak. Hozir o'z uyimiz bor. Issiq va sovuq suv, elektr energiyasi, gaz — barcha sharoit mujassam, — deydi Zuhra Jumaniyozova. — Farzandlarim yonimizdagi maktabda o'qiyapti. Ijtimoiy shaharcha rahbariyati 1 sotikli issiqxonaga berdi. Shuningdek, tovuq boqish uchun katak ham qo'yib berishdi. Issiqxonada yil davomida har xil ko'katlar ekib, qo'shimcha daromadga ega bo'lyapmiz. Shu bilan birga, buyurtma asosida ko'rpacha tikaman. Non pishirib sotaman. Yaqinda buzoq'imizni sotdik. Endi katta sog'in sigir olmoqchimiz. Buning barchasi mehmatimiz natijasi. Yaxshi yashasa bo'lar ekan...

Xo'jayli tumanidagi "Sarishungul" ovul fuqarolar yig'ini hududida joylashgan ijtimoiy shaharcha har qanday kishini bir qarashdayoq o'ziga jalb etadi. Bu shaharchada necha yillar davomida azob-uqubatlarda, sarson-sargardon bo'lib qiynalgan yuraklarga taskin topilgandek go'yo.

Ijtimoiy shaharchada bugungi kunda 130 oila makon topgan. Eski muruvvat uyi qayta ta'mirlanib, 8 milliard so'm evaziga har tomonlama qulayliklarga ega shaharchaning barpo etilganiga ikki yil bo'ldi. Boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bor shaxslar, uy-joyga muhtoj kam ta'minlangan oilalar davlatimiz mehruvurvatini his etib yashamoqda.

— Shaharchamizni kambag'allikdan chiqarish klasteri deb atash ham bo'ladi, — deydi ijtimoiy shaharcha direktori Omongul Abdijamilova. — Bu yerda yordamga muhtoj oilalarga har tomonlama ko'mak berish uchun



barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, shifokor, hamshira, psixolog singari jami 39 xodim faoliyat yuritadi. Shuningdek, shaharchamizda ijtimoiy dorixona, oziq-ovqat do'koni, tikuv fabrikasi, issiqxonaga va tovuqxonalar bor. Shaharchadagi Nasiba Abdullayeva xonadonida bo'ldik. Xona kichkina, lekin saranjom-sarishta. Salom-alikdan so'ng subhatimizni davom ettirdik. — Ijtimoiy shaharchaga kelganimizga ikki yil bo'ldi. Bizni juda yaxshi qarshi olishdi. Barcha sharoitlar mavjud. Kamchiligimiz yo'q. Oltinchi sifnda o'qiydigan qizim bilan birga yashaymiz, — deydi II guruh nogironi Nasiba Abdullayeva. — Oldin ota-onamning uyida yashardik. To'shakka mixlanib qolgan edim. Jarrohlik amaliyoti orqali oyoqlarimga protez qo'yishdi.

Asta-sekin yuradigan bo'ldim. Xudo nolalarimni eshitgan bo'lsa kerak, ushbu shaharchadan bir xonali uy berishdi.

Nasiba singari nogironligi bor 38 inson ijtimoiy shaharchadan boshpana topdi.

Ijtimoiy shaharchani aylanib yuribmiz. Atrofdagi yam-yashil daraxtlar, chiroyli gullar bahri dilingizni ochadi. Quyosh nuri charaqlab, olamga yorug'lik va yaxshilik taratmoqda. Shu yerda yashayotgan insonlarning yuz-ko'zlaridan shukronalik, hayotidan mamnunlikni ilg'ash qiyin emas.

Qizlargul Saparova II guruh nogironi. 12 yoshida avtohalokatga uchrab, ikki oyog'idan ayrilib qolgan. 20 yil mobaynida azobda yashadi. Mehr-muruvvat yordami tufayli oyog'iga endoprotez qo'yildi.

— 2022-yil mart oyida menga ham mehr shaharchasidan boshpana berishdi. 20 yil chekkan azoblarim bir zumda unut bo'ldi, — deydi Qizlargul Saparova. — Oramizda yaxshilar ko'p ekan. Shu bois bo'lsa kerak, elimiz tinch, osmonimiz musaffo. Xalqimiz mehruvurvatli.

Shaharchada Xo'jayli tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan shartnoma asosida ishsiz yoshlar uchun

monomarkaz tashkil etilgan. Shuningdek, Buxoro viloyati tadbirkorlari tomonidan har biri 1 sotikli issiqxonalar qurib berilgan. Ushbu issiqxonalar qo'shimcha daromad topishga imkon bermoqda.

Yurtimizda muhtoj insonlarga mehruvurvat ko'rsatish, bugungi kundan rozi bo'lib yashashi uchun barcha zarur choralar ko'rilmogda. Zero, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari ta'minlanishi, aholi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma bo'lishi, malakali tibbiy xizmat, sifati ta'lim, ijtimoiy himoya tizimini yaratib berish oliy maqsadimizdir.

**Minajatin QUTLIMURATOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Yangicha yondashuvlar

### "SAYXUNOBOD TAJRIBASI":

## OILALARGA FAROVONLIK OLIB KIRAYOTGAN TASHABBUS

**Hovlisidagi asalari qutilarini ko'zdan kechirayotgan Naimjon kimdir chaqirayotganini eshitib, darvoza tomon yo'l oldi. Mahalladagi hokim yordamchisini ko'rib, unga peshvoz chiqdi. Salom-alikdan so'ng hokim yordamchisi tumanda "Sayxunobod tajribasi"ni joriy etish bo'yicha amaliy ishlar qilinayotganini aytib, bu tizim haqida ma'lumot berdi va uning kelgusidagi rejalari bilan qiziqdi.**

Naimjon bir necha yildirki asalarichilik bilan shug'ullanadi. Dastlab ikkita asalari qutisi bilan ish boshlagan bo'lsa, hozir yigirmadan oshdi. Daromadi ham yomonmas, oilasini boqishga, tirikchilikka yetib turibdi. Bir-ikkita yildan buyon hovlisidagi 5 sotix yerga issiqxonaga qurishni maqsad qilgan, ammo yetarli mablag'i yo'qligi sababli ortga surilib kelmoqda.

Hokim yordamchisiga shu rejasini aytdi, bu amalga oshsa, tomonasidan yanada samarali foydalanib, ko'proq daromad topish imkonini borligini ma'lum qildi. Hokim yordamchisi yondastariga nimalarnidir qayd etib, u bilan xayrlashib ketganida Naimjon bu masala tez fursatlarda ijobiy hal bo'lishini kutmagandi. Ertasiga tumanga biriktirilgan bank xodimi bilan uchrashdi va issiqxonaga qurish uchun imtiyozli kredit ajratilganidan so'ng ishlar boshlanib ketdi. Ayni vaqtda 5 sotikli issiqxonaga tayyor bo'lish arafasida.

Karmanalıklar azaldan dehqonchilik hadisini olgan. Bir parcha yerdan ham unumli foydalanib, bir yilda ikki-uch marta hosil oladi. Tuman ahli nafaqat tomorqadan, balki chorvachilik, asalarichilik va baliqchilikdan ham yaxshi daromad topadi. Naimjon kabi fuqarolar uchun esa "Sayxunobod tajribasi" ayni muddao bo'ldi.

Ayni vaqtda ushbu tizim asosida Karmana tumanidagi 43 ta mahallani ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish, tomorqadan yiliga o'rtacha 60-70 million so'm daromad topish bo'yicha namuna yaratish ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Jarayonda har bir mahalladan daromadli mehnat bilan shug'ullanishga ishtiyoqi, imkoniyati bor bo'lgan, kam ta'minlangan 5-7 tagacha xonadon tanlab olinmoqda. Hozirgacha 300 ga yaqin shunday xonadonga hududdagi yetakchi tadbirkorlar biriktirilib, issiqxonaga, chorvachilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik kabi yo'nalishlarda faoliyat boshlashiga ko'mak ko'rsatilmoqda.

Mahallalar "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili bo'yicha ham ixtisoslashtirilmoqda. — Tumandagi har bir mahallada "Sayxunobod tajribasi"ni joriy etish ishlari davom etyapti. Aholi daromad topishi uchun xonadonlar o'rnatilib, issiqxonaga va boshqa yo'nalishlarda ish boshlashiga ko'maklashilmoqda. Buning uchun tijorat banklaridan mas'ullar birkirtilgan. Fuqarolarga naqd pul ko'rinishidagi imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Quvonarlisi, bu tajriba qisqa fursatda samarasini beryapti. "Sayxunobod tajribasi"ning mazmun-mohiyati, afzalligini tushunib, anglab yetayotgan fuqarolarning o'zi ham qiziqish bildirib, tashabbus ko'rsatyapti, — deydi Karmana tumani hokimining birinchi o'rinbosari Sherzod Zayniyev.

Tumandagi Narpay mahallasi issiqxonachilikka ixtisoslashtirilgan. Xonadonlarda 2, 3, 4 sotikli issiqxonalar mavjud bo'lib, asosiy drayver gulchilik hisoblanadi. Ushbu mahalla yerlari nisbatan sho'r va toshloq. Shunday bo'lsa-da, yer bilan tillashayotgan xonadon sohiblari mavsum oldidan yerga zarur ishlov berib, o'g'it bilan oziqlantiradi. Bu esa hosildorlikni oshirmogda.

Yoqub Eshonqulov xonadonida ham ayni vaqtda gullarning 40 dan ortiq turi parvarishlanmoqda. Issiqxonada yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi yo'lga qo'yilgani suv tejashda, gullarni samarali oziqlantirishda qo'l kelmoqda. Ayni vaqtda xonadon egalari "Sayxunobod tajribasi" asosida faoliyatini kengaytirishni maqsad qilgan.

Ushbu mahallada yashovchi mehnat faxriysi Ubaydilla Ismatov 70 yoshida ham tomorqadan unumli foydalanishda barchaga o'nak. Avvaliga 2 sotix issiqxonada limon, mandarin yetishtirishni yo'lga qo'yg'an bo'lsa, "Sayxunobod tajribasi"ning afzalligini anglab yetgandan keyin hozir yana qo'shimcha 3 sotix issiqxonaga qurishni boshlab yubordi.

— Bank xodimlari xonadonimizga kelib, imkoniyatlarimizni o'rganib, imtiyozli kredit berayotgan bo'lsa, bundan boshqa yana qanday sharoit kerak?! Faqat inson boqimanda bo'lmasligi lozim. Shunda daromadi ham, hayoti ham yaxshi bo'ladi, — deydi Ubaydilla Ismatov.

Hozir tuman mahallalaridagi hokim yordamchilari "Sayxunobod tajribasi" asosida "1 sotix tomorqadan kamida 1-2 million so'm daromad" mezonini bo'yicha aholi uchun biznes-rejalar ham ishlab chiqmoqda. Jumladan, Paxtaobod mahallasidagi hokim yordamchisi Zuhridin Sayiddinova tashabbusi bilan 22 nafar yoshga 7 gektar yer ajratib berildi. Ayni vaqtda bu yerda kungaboqar va tarvuz yetishtirishda yoshlarga ko'mak berish uchun Namangan viloyatidan tajribali mutaxassislar jalb etilgan.

Tumanda "Sayxunobod tajribasi"ni joriy etish bo'yicha mahallalarga birkirtilgan tijorat banklari mutasaddilari joylardagi hokim yordamchilari ko'magida sarlangan xonadonlarda daromad manbaini yaratish, tomorqa madaniyatini shakllantirish, sabzavot-podol mahsulotlari yetishtirish, ko'chat o'tqazish, obodonlashtirish va ko'kalimzorlashtirish, qolaversa, aholiga savdo va xizmat ko'rsatish, bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish ishlariga mas'ul hisoblanadi.

Birgina Arabxona mahallasiga birkirtilgan bank xodimi ko'magida 7 ta etiyotmand oilaga chorvachilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik kabi yo'nalishlarda faoliyat boshlash uchun 250 million so'm kredit ajratildi. Shuningdek, ushbu mahalladagi Ahmad Boboqulov xonadonidagi 10 sotix tomorqada "Sayxunobod tajribasi" asosida 7 ta issiqxonaga quriladi va kartoshka, sabzi, pomidor, bodring, bulg'or qalampir kabi bir necha turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ekildi. Ushbu tajriba joriy etilishi boshlangandan buyon mahallada issiqxonalar soni 87 taga ko'paydi, 20 ta xonadonda asalarichilik yo'lga qo'yildi va 130 fuqaroga qo'shimcha daromad uchun 24 gektar yer ajratib berildi. Muhimi, tumanda bu boradagi ishlar davom etmoqda.

**G'olib ABDUSALOMOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



## Nuqtayi nazar

## IJTIMOIY DAVLAT NEGIZI

## Oila – jamiyatning boshlang'ich hujayrasi

Ismoil SAIFNAZAROV,  
falsafa fanlari doktori,  
professor

## Boshlanishi 1-betda

Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanadi. Oila jamiyatning boshlang'ich hujayrasi, o'g'il-qizlarning axloqi, madaniy darajasi, qobiliyati, aql-zakovati, fikr yuritishi, xayollari, muloqoti, xulq-atvori, e'tiqodi va ilmiy dunyoqarashi kabilarga yuqori darajada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan nurdur.

Oila hayot abadiylikni, avlodlar davomiylikni ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajakda qanday inson bo'lib yetishishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i. O'zbekiston milliy taraqqiyotida, insonning hayoti va turmushida, ayniqsa, yosh avlodning kamol topishida, axloqiy voyaga yetishida oilaning o'rni va vazifasi muhimligi aksioma. Bu jarayonning tugallanishi oila ta'siridan tashqari yuzaga kelmaydi.

Bola tug'ilgandan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ular manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablar qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Shu bois, mamlakatimizda jamiyatning muhim bo'g'inini sanalgan oilaning ijtimoiy negizini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Unga asosan, milliy qadriyatlarimiz, nikoh va oila muqaddasligini ta'minlash, yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofazalash, oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilashga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi. Bu bejiz emas. Chunki bugungi kunda milliy an'ana va qadriyatlarimizni mensimaslik, milliy va diniy qarashlari o'zgacha bo'lgan uzoq xalqlar hayotidan ko'r-ko'rona andaza olish, "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilish yurtimizda asrlar davomida shakllangan oilaviy munosabatlarga putur yetkazmoqda. Bundan tashqari, ayrim yoshlarning oila, nikoh

berilmasa, qancha buyuk bo'lsa ham bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, oila, ayol va farzandlarimiz masalasi doim davlatimiz e'tiborida.

Davlatimiz rahbari mahalliy kengashlar deputatlari joylarda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari ustidan chinakam deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatish lozimligini bot-bot takrorlab kelyapti. Bu borada qator tashabbuslarni ilgari suryapti. Hududlarga tashriflari davomida aholi turmush sifatini yaxshilash, sanoatni rivojlantirish, hududlar infratuzilmasini yanada takomillashtirish, erkin va kichik sanoat zonalarini, texnoparklar tashkil etish borasida qator tavsiyalar berish bilan birga oilalardagi ahvol, muammo, ayollarning tashvishi va quvonchi bilan ham jiddiy qiziqyapti. Bularning ortida oilalar kelajagini yaxshilash istagi yashirin, desak xato bo'lmas.

Prezidentimiz ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida ham oila mavzusiga alohida to'xtaldi. Yig'ilishda voyaga yetmagan qizlarni unashirish va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh bilan bog'liq, kelajak avlod salomatligiga salbiy ta'sir qilyotgan holatlarning oldini olish, buning oqibatlarini tushuntirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotgani aytib o'tildi.

Keyingi yillarda oila va xotin-qizlar huquqlari kafolatlari, ayollarni zo'ravonlik va tazyiqdan himoya qilish tizimi ancha kuchaytirildi. Lekin bunday holatlar hali ham uchray turibdi. Zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar reabilitatsiya bilan yetarlicha qamrab olinmagani ham ayni haqiqat. Shuning uchun ayollar va bolalarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoyalash bo'yicha mahalla darajasida alohida tizim yaratishga kirishildi. Tazyiqqa uchragan ayollar reestri tuzilib, ularga mahallada tezkor kompleks xizmat ko'rsatiladi. Har bir tuman shifoxonasida zo'ravonlikka uchraganlarga tibbiy va ruhiy yordam ko'rsatish uchun tun-tun ishlaydigan xonalar tashkil etiladi. Qiyin vaziyatdagi yosh onalarni qo'llab-quvvatlash uchun "Onalar maskani" xizmatini yo'lga qo'yish topshirildi.

Oila masalasiga bu qadar jiddiy e'tibor zamirida butun dunyo oila instituti inqiroziga, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug'ilishlar ko'payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolar turibdi. Bunday muammolarni millatning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkinligini olimlar ilmiy jihatdan asoslab bergan. Abdurauf Fitrat bu borada aniq va tiniq fikrlarni bizga meros qilib qoldirgan: "Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuliv anu shu millat oilalarining intizomiga tayandadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi".

Demakki, ijtimoiy hayotdagi eng dolzarb muammolardan biri oilalardagi ajrashishlardir. Tahlillarga ko'ra, oilaviy ajrashishlar ko'rsatkichlari o'tgan yillardagiga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida kamaygan bo'lsa, Farg'ona (10,2 foiz), Andijon (14,9 foiz), Xorazm (7,4 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (5,2 foiz) ortgan. Nikohdan ajrashish sabablari o'rganilib tahlil etilganida, 16 foiz holatda nikohlanuvchilarning oilaga tayyor emasligi, 12,3 foiz holatda farzandsizlik, 15 foiz holatda uchinchi shaxs aralashuvi, 12,2 foiz holatda uzoq vaqt bir oila bo'lib yashaganlik, 5,9 foiz holatda moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar hamda 2,7 foiz holatda xiyonat sabab bo'lgan.



masalasiga yuzaki yondashayotgani, farzand tarbiyasiga beparvoligi, ota-onalik burchi va mas'uliyatini chuqur anglamasligi ham oilalar barbod bo'lishiga olib kelyapti.

Axir oilada kelajak egalari dunyoga keladi, tarbiya topadi, o'zligini anglaydi. Zero, oila — davlat siyosati. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzaksizligi — oiladan! Bordini-yu, oila tuzuk bo'lmasa, tarbiyaga ham e'tibor

Shuningdek, spirtli ichimlik va giyovandlik moddasi iste'moli sabab 2,6 foiz, tazyiq va zo'ravonlik bois 1,5 foiz, ommaviy yoki xorijiy madaniyatning salbiy ta'siri va boshqa sabablar tufayli 2,1 foiz holatda oilalar barbod bo'lgan. Oilalardagi ajrashishlar oqibatida 30 mingdan ko'proq bola bugun tirik yetimga aylangan.

Millatning umumiy baxti, saodatli ertasi uchun hozir harakat qilish shart. Bunda, avvalo,



farzandlarning chiroyli muhitda o'sishi, kamol topishi va ular balog'atga yetganida oilaga tayyorlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrashishlarning sabablari yuzasidan o'tkazilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar muammo aksariyat hollarda ma'naviy daraja, psixologiya va tarbiyaga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Achchiq haqiqat shuki, ba'zi yoshlar oila qurishga tayyor emas. Shu bilan birga, aksariyat qaynonalarning ham oila borasida ilmi, tajribasi yo'q, tashqaridan kelgan bir qizga qanday munosabatda bo'lishni bilmaydi. Yaxshiyam mahalla bor, jamoatchilik bor.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugun mahallalardagi xotin-qizlar faollari, "Oqila ayollar" harakati a'zolari, jamoatchilik



vakillari nizo boshlanayotgan oilalarga kirib, ularda qaynona, qaynata, kelin va kuuyov bilan individual ishlash orqali oilalarni ajrashishga yetib bormay yaratishdir choralarini ko'rgan. Natijada ajrashish yoqasiga kelib qolgan 24 ming 193 oiladan 20 ming 265 tasini yaratishga erishilgan.

Oilaning totuvligi bir kishi yoki bir sababga bog'liq emas. Buning uchun hamma — kelinkuuyov, ota-onalar, oila tashqarisidagilar, keng jamoatchilik barobar jon kuydirishi kerak. Xalqimiz bolajon va oilaviy qadriyatlarini hurmat qiladi. Ikki yoshning boshini qovushirib, bir oilani barpo qilish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun ota-onalar, yoshi ulug'lar ko'pdan ko'p maslahat va sa'y-harakatlar qiladi. Biroq yosh er-xotin o'rtasidagi arizmas gap-so'zlar va asossiz vijaylufi guldek oilaning barbod bo'lishi, farzandlarning yetim qolishi achinarli hol. Shuning uchun ota-onalar, tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari vakillari, oila va xotin-qizlar bo'limlari bu masalaga hamisha mas'uliyat bilan yondasha, qutlug' qo'rg'on kamroq buziladi.

Muqaddas qo'rg'on darz ketishiga sabab bo'lyotgan omillardan yana biri ilmsizlik, johillik, shar'y nikohlarning avj olishidir. Oila kodeksida belgilanganidek, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Ming afsuski, keyingi paytlarda oilaviy munosabatlarga yengil-yelpi qarash holatlari uchramoqda. Ayrim xotin-qizlar oqibatini o'ylamay, shar'y nikoh orqali ikkinchi xotin bo'lish yo'lini tanlayapti. Tasavvur qiling, tegishli davlat idorasida qonuniy qayd etilmagan nikohdan tug'ilgan farzandlarning taqdiri, kelajagi nima bo'ladi? Tabiiyki, davlat qonunlari bo'yicha ular ko'pgina huquqlardan

mahrum bo'ladi, otaliki belgilash, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani olish, meros huquqi, bog'chaga, ta'lim muassasasiga qabul qilish masalalarida qanchadan qancha muammolar yuzaga keladi. Eng yomoni, bunday bolalar ruhan kemtkilik, turli ma'naviy qonsonlar bilan voyaga yetadi. Ular o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi deb his eta olmaydi.

FHDYO ro'yxatidan o'tmagan oilalarda ajrashish ko'pligi va bunday hollarda ayollar o'z huquqlarini himoya qila olmayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Natijada qonunga zid qurilgan oilalar parokanda bo'lib, bolalarning tirik yetimga aylanishi kabi noxush holatlar ko'paymoqda. Jamiyatdagi har bir soha va faoliyat, har bir munosabat va harakat qonun bilan tartibga solinadi. Qonunga bo'syunish

toifadagi ishlarni muhokama qiladi, oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rganadi, bunga imkon yaratgan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rib boradi. Bunday tajriba mamlakatimiz tarixida kuzatilmagan.

Bugungi kunda ham qarindoshlar o'rtasida nikoh, shuningdek, qizlarni erta uzatish holatlari kuzatilayotgani va bu salbiy oqibatlariga olib kelayotgani ushbu masalaga yanada teranroq nazar tashlash, yanada mas'uliyat bilan yondashish lozimligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish borasida qator ishlar qilinayotir. Erta oila qurgan shaxslar, shuningdek, bunga yo'l qo'yan ota-onalar, ta'lim va diniy muassasa xodimlari javobgarlikka tortilmoqda. Oila kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksiga nikoh yoshi to'g'risidagi qonun talablarini buzganlik, ya'ni nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga, erga berish yoki uylantirish, shuningdek, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish uchun javobgarlikni belgilovchi normalar kiritildi. Negaki nikohga qadam tashlayotgan har bir yigit-qiz, birinchi navbatda, oilaga har tomonlama, ya'ni jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lomligi, kelajakda ota-ona bo'lish, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishga tayyorligini obdan o'ylashi zarur. Bugun ayrim yoshlarimizning oila qurishga tayyor bo'lmasdan, erta turmush qurishi oqibatida hatto qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ham ajrashishga sabab bo'lmoqda. Erta nikohning oldini olish uchun yoshlarga, birinchi navbatda, sog'lom bo'lish zarurligi, kasb-hunarli bo'lish, yetuk mutaxassis o'laroq ota-onasi, vatanga xizmat qilishni o'rgatishimiz lozim.

Sudlarning nikohdan muddat bermasdan ajratish holatlari deyarli uchramaydi. Buning ham salbiy jihatlari mavjud. Xususan, er-xotin mintazam urib, og'ir tan jarohati yetkazib, jinoyatda jabrlanuvchi bo'lsa ham ularga muddat berilish yoki da'vosi rad etilar edi. Oqibatda jinoyatdan jabr ko'rgan ayol yana tazyiq va zo'ravonlik ostida yashashga majbur bo'lardi. Endi bunday holatda mahalladagi xotin-qizlar faolining asoslantirilgan xulosasi bilan sud ishini soddallashtirilgan tartibda ko'rib chiqib, jabrlanuvchini talabi bilan muddat bermasdan ajratishga yo'l qo'yiladi. Bu ham zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar huquqlarini davlat va sud tomonidan samarali himoya qilishning muhim vositasidir.

"Qush uyusida ko'rganini qiladi" degan naql bor. O'z navbatida, oilada shakllanib kelayotgan har bir inson jamiyatning asosiy bo'g'inini ekanini, u eraga kelajak poydevori bo'lishi lozimligi oila bilan singdirilib, uqtirib boriladi. Bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan oila mezonlari jamiyat mezonlari ekanini yana bir bor isbotlanmoqda. Oilani mustahkam ushlab turish, kelajak avlodni benoqson tarbiyalash bevosita onalarimiz, ayollarimiz, xotin-qizlarimizga ko'p jihatdan bog'liq. Shunday ekan, biz, avvalo, ma'naiy, aqlan sog'lom, fikratiy siyratida dadillik ufturib turadigan, qat'iyat va sabrmatonatlilik qiz tarbiya qilmog'imiz, ularni turli to'fonlardan gul kabi asrab-avaylamog'imiz lozim.

Milliy qadriyatlar asosida kamol topayotgan qizlarimizni ilmiy qilish, ularni turli sohalarida o'qitish, kasb-hunar egallashi, avvalo, o'zi, oilasi uchun poydevor bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda sog'lom fikrlovchi shaxslarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Oilada ham, jamiyatda ham har doim erkak kishi yetakchi ekanini anglagan holda gender tenglik tamoyilini asosida yetishib chiqayotgan kadrlarimiz ko'payishi davlat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki biz o'z g'ururiy shah'ni himoya qila olgan To'marislar, aql-zakovatda

tensiz bo'lib, Temuriylar saltanatining asosiy tirgagi, maslahatgo'yi bo'lgan Bibixonim, o'z vafosi-yu sadoqati bilan dunyoni lol qoldirgan Nodira-yu Uvaysiyalar avlodimiz. Shuni anglagan holda oila va uning mohiyati, har tomonlama ravnaqi va jipsligini ta'minlash, oilalarga e'tibor xalqqa, millatga, kelajakka e'tibor ekanini har birimiz teran tushunishimiz zarur.

Mamlakatimizda oila masalasiga davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaraladi. Buni yangi tahrirdagi Konstitutsiyada oilaga alohida bob ajratilganida ham ko'rish mumkin. Bizdan farqli o'laroq, ko'plab davlatlar o'z konstitutsiyalarida oila masalasiga qisman o'rin ajratgan bo'lsa-da, unga alohida bob ajratilgani kuzatilmagan. Mazkur yondashuvning o'zaro Konstitutsiyamizda oilaga "jamiyatning asosiy bo'g'inini" maqomi hamda "jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi" bejiz kiritilmaganini ko'rsatadi.

Bosh qonunga muvofiq, "Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi". Prezidentimiz raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ota-ona mehriq muhtoj bolalarga g'amxo'rlik masalalari ko'rib chiqilgani ham davlatimiz ijtimoiy adolat tamoyillariga qat'iy rioya etayotganini ko'rsatadi.

Endi quyi bo'g'indagi e'tiborsizlik oqibatida joylarda qarovsiz qolib ketgan bolalarga vasiylik belgilanmoqda. Shuningdek, ota-onasi migratsiyada bo'lgan, noqulay ijtimoiy muhitdagi oilalarda tarbiyalanayotgan, ruhiy-jismoniy rivojlanishida quurlari bor bolalarga yordam tizimi takomillashtiriladi. Bundan buyon joylarda vasiylik, homiylik, patronatga olingan hamda oilaviy bolalar uyarlidagi bolalar bilan mahalladagi ijtimoiy xodimlar shug'ullanadi. Ular ota-ona o'rini bosuvchi shaxslar bola oldidagi majburiyatini qay darajada bajarayotganini monitoring qilib, baholab boradi. Buning uchun hokimliklar huzuridagi Vasiylik va homiylik komissiyalari tugatilib, ularning vakolati "Inson" markazlariga o'tkaziladi.

Sog'lig'i, hayoti xavf ostida bo'lgan, yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramog'iga olish bo'yicha "ixtisoslashgan tutingan oila" tizimi joriy etiladi. Tutingan oila maxsus sertifikatga ega 30 yoshga to'lgan odamlar tomonidan tashkil etilib, unga 3-5 nafargacha bola qabul qilinadi. Ixtisoslashgan 160 ta ta'lim muassasasida bosqichma-bosqich "g'amxo'rlik" guruhlari tashkil qilinadi. Ya'ni og'ir kasalligi bor bolalarga shu guruhlarda qarash orqali ota-onalariga ishlashi uchun sharoit yaratib beriladi.

Ota-onasidan ayrilgan yoshlar hayotda o'z o'rini topib ketishi uchun ko'maklashish tizimi ham o'zgaradi. "Yoshlarga hamrohlik" dasturi asosida bunday yoshlarni qo'llab-quvvatlash 23 yoshgacha etib belgilandi (hozir 18 yosh). Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari "Hayot maktabi" sifatida qayta tashkil etiladi. Yetim va ota-ona qaramog'isiz bo'lgan yoshlarning salohiyatini o'z yobga chiqarishga ko'maklashish uchun ular tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitiladi, dehqonchilik uchun yer beriladi. Oliyohni tamolagan, ota-ona mehridan mahrum bo'lgan yoshlarni davlat tashkilotlariga ishga joylashtirish bo'yicha tuzilayotadi. Bunday yoshlarga uy-joy berish tizimi ham tubdan qayta ko'rib chiqiladi. Bunda "Inson" markazlari tomonidan haqiqatan uy-joyga muhtoj yoshlar ro'yxati shakllantiriladi, ularga beriladigan uy-joyning narxi hozir bahosidan kelib chiqib, hududlar kesimida belgilanadi. Joriy yilda bu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag' 140 milliard so'mga yetkaziladi. Mutasaddilarga 1-iyunga qadar navbatda turgan 500 nafar yetim bolani uy-joy bilan ta'minlash topshirildi.

Bizni quvontiradigan, O'zbekistonda hech kim e'tibordan chetda emas. Davlat Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy himoya prinsiplarini ro'yobga chiqaryapti. Dunyo tarixini kuzatadigan bo'lsak, oila masalasiga yengil qaragan xalqlar va davlatlar, albatta, inqirozga yuz tutgan guvohi bo'lamiz. Buyuk imperiyalar sharmandalarcha qulashining asosiy omillaridan biri ham shu bo'lgan.

Har bir inson baxtli yashashga haqli. Insonlar baxtli bo'lsa, oilalar baxtli bo'ladi. Oilalar baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, insonlar o'z kelajagini qurishda, belgilashda adashmasligi, oila muqaddas qo'rg'on ekanini anglab yetishi, qonunda belgilangan tartibda nikoh tuzib, oila va jamiyat mustahkamligi, mamlakat barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shishi lozim. Zero, oila hayot abadiylikni, avlodlar davomiylikni ta'minlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga, jamiyat ravnaqiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Mustahkam oila biz quvrayotgan yangi ijtimoiy davlatning negizini tashkil qiladi.

DAVLAT BUDJETI

# MOLIYAVIY TIZIMNING ASOSIY BO'G'INI

## yaqin muddatda daromadga yarasha buromad asosida ishlashga o'tadi(mi?)

O'zbekiston konsolidatsiyalangan budjetining 2024-yilgi daromadlari 375 trillion, xarajatlari 427,6 trillion, taqchilligi 52,6 trillion so'm yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz miqdorida belgilangan. Shundan daromadlar 270,7 trillion so'm yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 20,8 foiz, xarajatlari 313 milliard so'm miqdorida rejalashtirilgan. Xarajatlarning 48 foizdan ortig'i yoki 151,5 trillion so'mi ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi nazarda tutilgan. Belgilab olingan ustuvor yo'nalishlarning eng asosiysi — makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Pirovard maqsad — aholi farovonligini yaxshilash. Makroiqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligiga ko'p jihatdan yalpi ichki mahsulotning o'sishi orqali erishiladi.



Abdurauf QORJOV, shaharlovchi

### XARAJATLAR SAMARADORLIGI

Prezidentimiz raisligida 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu yil yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 6 foiz ko'paytirib, 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingani ta'kidlandi. Yirik tarmoqlarda qo'shimcha qiymatni 45 foizdan oshirish, tannarxni 15 foiz kamaytirish, jami sanoatda 7 foiz o'sishni ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilandi.

Yig'ilishda budjet xarajatlari samaradorligi, moliyaviy intizom masalalari tahlil etilar ekan, quyidagi raqam va misollarga e'tibor qaratildi. O'tgan yili budjetdan 1,2 trillion so'mlik noqonuniy xarajat hamda 200 milliard so'mlik kamomad va o'g'irliklarga yo'l qo'yilgani aniqlangan. Sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi sohalaridagi dasturlarga ajratilgan mablag' to'liq ishlatilmagan. Shuningdek, ishlamaydigan xodim yoki bajarilmagan ish uchun haq yozish, asossiz suda yoki mukofot pullari olish kabi holatlar ko'paygan.

Bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiya faoliyati qonqarsiz ekan ko'rsatib o'tildi. Shu bois, mazkur inspeksiya Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga o'tkazilishi belgilandi. Joriy yilda budjetda ko'zda tutilgan 313 trillion so'mlik xarajatlarning to'g'ri sarflanishini nazorat qilish vazifasi qo'yildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi respublika

budgetining kunlik kirim-chiqimlariga doir axborotni muntazam e'lon qilish borishni yo'lg'a qo'ygan. Unga ko'ra, joriy yilning yanvarida budjet taqchilligi 5,8 trillion so'mni, fevralda 7,2 trillion so'mni, mart oyida esa 6,8 trillion so'mni tashkil qilgan va jami 19,8 trillion so'mdan oshgan. Bu budjet daromadlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 foiz, xarajatlari esa 19,3 foiz o'sganini ko'rsatadi. Mazkur raqamlarni 2023-yilning birinchi choragidagiga taqqoslaganda 2022-yildagiga nisbatan qariyb 20 barobar ko'p.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, O'zbekistonda oxirgi to'rt yilda budjet taqchilligi belgilangan rejalardan ortiq shakllanib kelmoqda. Xususan, 2023-yilda konsolidatsiyalangan budjet taqchilligining cheklangan miqdori 3 foiz etib belgilangan bo'lsa-da, amalda 5,5 foizgacha o'sgan edi.

"2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi-ning davlat budjeti to'g'risida"gi qonunga muvofiq, joriy yilda konsolidatsiyalangan budjet daromadlari prognozi 375 trillion so'm, xarajatlari prognozi 427,5 trillion so'm, ya'ni umumiy fiskal balans yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz taqchillik bilan rejalashtirilgan. Bu jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar va geosiyosiy vaziyatning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini yumshatish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, aholi to'lov qobiliyati tushib ketishining oldini olish tadbirlariga qo'shimcha mablag'lar ajratilishi, tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berilishi natijasida yo'qotishlarni kelib chiqishi bilan izohlanadi.

Mazkur hujjatda budjet taqchilligini qoplash uchun jalb etiladigan mablag' manbalari ham aniq ko'rsatib berilgan. Xususan, investitsiya loyihalari moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan tashqi qarz miqdori saqlab qolinib, taqchillikni qoplash uchun ajratiladigan qismni oshirgan holda, tashqi qarzni cheklangan hajmini 5 milliard AQSH dollari miqdorida, shundan 2,5 milliard dollari davlat budjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, uning taqchilligini, qolgan qismi investitsiya loyihalari moliyalashtirishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Uzoq muddatli davrda makroiqtisodiy va budjet barqarorligiga erishish uchun taqchillik o'rta muddatli davrda 3 foizdan oshmasligini ta'minlash, buning uchun mablag'larni maqbullashtirish, daromadlar bazasini kengaytirish, samarasiz soliq imtiyozlari va preferensiyalarini bekor qilish orqali joriy yilga belgilangan miqdorni bosqichma-bosqich pasaytirib borish zarur bo'ladi.

Shu yilning 2-aprel kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligida bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'kidlanganidek, mamlakatdagi mavjud fiskal, davlat tashqi qarzi bo'yicha qoidalarini kengaytirish va takomillashtirish, kerak bo'lsa, budjet taqchilligiga nisbatan ham bu qoidalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Yana shuni aytish kerakki, bu yil budjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz chegarasida tasdiqlangan bo'lib, albatta, bu ta'minlanishi zarur. Shu bilan birga, keyingi yillardan boshlab taqchillikni kamaytirib borish va mo'tadil darajada saqlab qolish uchun bu yil ham qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu ishlarning birinchisi makrofikal risklarni baholash hisoblanadi. Bu bo'yicha Xalqaro moliya jamg'armasi bilan bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ularni yakunlab, nafaqat risklarni baholash, balki ularning ta'sirini yumshatish yuzasidan ham tegishli makromanyovrlarni ishlab chiqish bo'yicha ishlarni boshlash kerak bo'ladi. Bu yil 2025-2030-yillarga mo'ljallangan davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish ham mo'ljallangan.

Bu jarayonda budjet xarajatlari samaradorligini oshirish hamda 2025-yilga kelib, budjet taqchilligini YAIMga nisbatan 3 foizga tushirish, kelgusi yillarda esa shu ko'rsatkichdan oshirmaslik muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda amaldagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonunda konsolidatsiyalangan budjetni shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinganini yodga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda O'zbekiston budjetlarining 6 oylik ijrosi yakunlari bo'yicha daromadlari prognozi bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli



asoslar mavjud bo'lmagan hollarda respublika budjeti umumiy xarajatlarning 3 va undan ortiq foizi miqdoridagi xarajatlarni qisqartirish Oliy Majlis palatalari, 3 foizdan kam miqdordagi xarajatlarni qisqartirish Vazirlar Mahkamasi qarori asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirilyapti. Ayrim yo'nalishlarda pilot loyihalar boshlangan. Uning bosh tamoyili "budjet xarajatlari boshqarish"dan "natijalarni boshqarish"ga o'tishni o'zida ifoda etadi. Bu jarayondagi asosiy mezon muddatlilik hisoblanadi. Sababi, mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlari uzoq muddatli xususiyat kasb etyapti. Binobarin, 2019-yildan boshlab O'zbekistonda budjetnomani 3-yilga mo'ljallab rejalashtirish amaliyoti joriy etildi.

Sinov tariqasida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tadbirlari rejasi 2025-2026-yillarda Sog'liqni saqlash va Qishloq xo'jaligi vazirligining budjet xarajatlari dasturlar kesimida ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, birinchi darajali budjet mablag'lari taqsimlovchilarning 2024-2026-yillar uchun ularning foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarini tasdiqlash kabi masalalarni qamrab oladi.

Ta'kidlanishicha, mazkur strategiya orqali 2026, uzoq'i bilan 2027-yilga kelib, davlat budjetini to'liqligicha natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishga o'tkazish maqsad qilingan. Davlat moliya statistikasini ham 2026-2027-yillarga kelib, to'liq xalqaro standartlarga o'tkazish kerak bo'ladi.

### TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH

Hozirgi iqtisodiy sharoitda har bir hududning rivoji aholi turmush sharoiti, kam ta'minlangan oila va shaxslar yetarli darajada ijtimoiy himoya qilinishi, davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishi bilan chambarchas bog'liq. Bunda davlat budjetining viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasining muayyan qismi

bo'lgan, o'zida daromadlar manbalari va ularning tushumlar miqdori nazarda tutilgan mahalliy moliyalashtirishning ahamiyati katta. Uning hisobidan fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlariga mablag'lar ajratiladi.

Bundan to'rt yil oldin qabul qilingan "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun bilan mahalliy budjetlar xarajatlari Xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi. Joylardagi davlat hokimiyati organlari faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan hamda to'liq mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi.

Xuddi shu kezda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni o'zida mujassam etgan "Ochiq budjet" axborot portali ishga tushirildi. Portal orqali fuqarolar nafaqat budjet ma'lumotlari bilan tanishib borishi, balki bu jarayonda bevosita ishtirok etgan holda o'zini qiyinab kelayotgan masalalarni hal etish uchun tegishli mablag'larni talab qilishi imkoniyati yaratildi.

Prezidentimizning 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan esa bu boradagi mexanizm yanada takomillashtirildi.

Aholini budjet jarayoniga keng jalb qilish, joylarda ularni qiyinab kelayotgan muammolar yechimini aynan o'zlarining tashabbuslari asosida topish imkoniyatini yaratish maqsadida 2021-yildan tuman va shahar budjetlari xarajatlarning 5 foizi hamda 1-iyulidan tuman va shahar budjetlari qo'shimcha manbalarning 30 foizi bevosita fuqarolar tomonidan bildirilgan tadbirlarga yo'naltirilishi belgilab qo'yildi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'lim boshlig'i Azim Hasanov. — Jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish uchun 2021-yildan har bir hududdan bittadan —

14 ta tuman va shaharda "Tashabbusli budjet" loyihasi tajriba tariqasida o'tkazilgan bo'lsa, keyingi yildan boshlab bu jarayon har yili ikki mavsumda o'tkazib kelinayapti.

2022-yildan boshlab tuman va shaharlar budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'larni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi "Ochiq budjet" axborot portali orqali "Mening yo'lim" loyihasi orqali jamoatchilik fikri asosida ta'mirlashga yo'naltirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. O'tgan yildan qayerda ichki yo'l qurish, qaysini ta'mirlashni odamlarning o'zi hal qiladigan bo'ldi. Joriy yildan esa bu dastur "Tashabbusli budjet" loyihasi bilan birgalikda o'tkaziladigan bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining o'tgan yil 24-oktyabrda "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2023-yildan boshlab "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida "Ochiq budjet" axborot portali orqali ovoz berish yo'li bilan aniqlanishi ham nazarda tutilgan.

Raqamlarni umumlashtiradigan bo'lsak, 2021-2023-yillar davomida "Tashabbusli budjet" jarayonlari uchun davlat budjetidan qariyb 8 trillion so'm yo'naltirildi. Mazkur mablag' doirasida jami o'n mingga yaqin loyiha g'olib deb topilib, besh mingdan ortiq mahallada ijtimoiy muammolar bartaraf etilishiga erishildi. Joriy yilda esa bu maqsadlar uchun ajratilgan jami mablag' 8 trillion so'mni tashkil etyapti. Uning birinchi mavsumi uchun jami 3 trillion 373 milliard 305 million so'mdan ziyodroq pul ajratildi. O'tkazilgan tanlovda 2254 mahalla bo'yicha jami 2770 loyiha g'olib deb topildi. Ovoz berish jarayonida 11,7 million aholi ishtirok etdi.

Endi "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda respublika budjetidan har yili ajratiladigan mablag'ning kamida 50 foizi "yashil bog'" va "yashil jamoat parklari" tashkil qilish uchun va "Ochiq budjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan "Mening bog'im" loyihalari moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Ko'rinish turibdiki, "Tashabbusli budjet" jarayonlari fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashda tezkorlik bilan natijaga erishish mumkin bo'lgan mexanizm sifatida shakllanib bormoqda. Bu orqali budjet mablag'i aynan jamoatchilik fikri asosida fuqarolar tomonidan dolzarb deb topilgan muammolarni hal etish uchun manzilli yo'naltirilishiga, ajratilgan mablag' dan foydalanishda jamoatchilik nazorati kuchayishiga erishilmoqda.

Iqtisodiyot fanlari doktori Nodirbek Rasulov ta'kidlaganidek, budjet ochiqchiligi islohotlari, birinchi, davlat budjeti samarali ishlatilishini ta'minlash, ikkinchi, jamoat nazorati kuchayishiga olib keladi, uchinchi, fuqarolar yordamida uzoq yillardan buyon hal bo'lmayotgan ijtimoiy muammolar yechilishiga imkoniyat yaratiladi. Budjet ochiqchiligi amaldorlar tomonidan xalq puli talon-taroj qilinishiga jiddiy to'siq bo'lishi bilan xalq manfaatlariga xizmat qiladi. Shuning uchun aholi turmush farovonligini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni hal etish, ularga munosib yashash sharoitlarini yaratish maqsadida budjetdan ajratiladigan mablag'ni taqsimlash jarayonida fuqarolarimiz ishtirokini kengroq ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.



## Munosabat

# YOSHLAR UCHUN NAVBATDAGI IMKONIYAT

Zokir ALLAMURODOV,

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bo'lim boshlig'i

Yoshlarning bandligini ta'minlash orqali daromadlarini oshirish, pirovardida turmush farovonligini yaxshilash "O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturida ham ustuvor vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bugun yosh avlodning o'z iqtidorini namoyish etgan holda baxtli, farovon turmush kechirishiga ko'maklashish davlatimiz diqqat-e'tiborida.

Prezidentimizning joriy yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ana shu g'amxo'rlikning yorqin namunasini ko'rsatadi, desak yanliganmaymiz. Qarorga ko'ra, tuman hokimliklari zarifasidagi 60 ming gektar yer elektron onlayn auktsion savdolariga qo'yilib, dehqon xo'jaliklari tashkil etish uchun yoshlarga ijaraga beriladi. Aniqrog'i, dehqonchilik, bog' yoki chorvachilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yoshlarga yerlarni ijaraga olishi uchun

moliyaviy ko'mak ajratiladi, yetishtirgan mahsulotlarini sotishi uchun xaridor topishda ham yordam ko'rsatiladi.

Yer maydonini ijaraga berish "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali amalga oshiriladi. Auktsion savdolar "mahalla yetiligi"ning tavsiyasi bilan shakllantiriladigan ro'yxatga kiritilgan yoshlar (talabgorlar) o'rtasida o'tkaziladi. Onlayn auktsion savdo g'oliblari yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashi mumkin. Dehqonchilik qilmoqchi bo'lgan yoshlarga mahsulot yetishtirish uchun tijorat



banklari tomonidan 7 yil muddatga 100 million so'mgacha kredit ajratiladi. "Mahalla yetiligi" ajratiladigan yer maydonini belgilashga kafal hamda olingan kreditlardan samarali foydalanilganiga javobgar hisoblanadi.

Yer ijaraga olishni maqsad qilgan ayrim yoshlar dehqonchilik, bog'dorchilik yoki chorvachilik borasida yetarli tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Shuni hisobga olgan holda, ular "Agrobank" ATBning "Fermerlar maktabi", "Suvchilar maktabi", agrar sohada kadrlar tayyorlaydigan OTMLar va hududlardagi kichik biznesga ko'maklashish markazlarida tashkil etiladigan o'quv kurslariga yo'naltirilib, bilim va malakasi oshiriladi. Shuningdek, agrar sohada qo'yilgan o'quv-tajriba uchastkalarida bog' va tokzorlar barpo etish, sabzavot, kartoshka, dukkakli, moyli ekinlar yetishtirish bo'yicha ko'rgazmalari dala maydonlarida tez-tez bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish borasidagi amaliy tajribalarini shakllantiradi va yanada mustahkamlaydi.

Yoshlar uchun yana bir imtiyoz. Yerdan ziroat undirmoqchi bo'lganlarga minitexnika, urug' va ko'chat xarid qilish uchun "Yoshlar daftri" jamg'armasidan 5 million so'mdan subsidiya, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 33 million so'mgacha kredit ajratiladi. Ulariga fermerlar kengashi va

"Agrobank" ATB tomonidan joylarda 167 ta agromarkaz orqali xususiy sektorni jalb qilgan holda urug', ko'chat yetkazish, mineral o'g'it berish, minitexnika va agronom xizmatlari yo'lga qo'yilib, yetishtirgan mahsulotni xarid qilish uchun qayta ishlovchilar hamda eksport qiluvchilar birlashtiriladi. Ushbu maqsadlar uchun Yoshlar ishlari agentligi jamg'armasidan 50 milliard so'mgacha, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi jamg'armadan 60 milliard so'mgacha mablag' yo'naltiriladi.

Talabgor yoshlarga sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar, makkajo'xori, dukkakli va moyli ekinlar, dorivor o'simliklar yetishtirish hamda sug'oriladigan yer, bog'dorchilik-uzumchilik yo'nalishlari uchun ko'p yillik daraxtzorlar yoki samarasiz yer maydonlari, chorvachilik yo'nalishlari uchun ozuqa ekinlari yetishtirishga mo'ljallangan lalmi, bo'z, yaylov va yangi o'zlashtirilgan yer maydonlarini 30 yil muddatgacha "Bir massiv — bir mahsulot" tamoyili asosida ijara olishga ruxsat beriladi.

Viloyat hokimliklari ijaraga berilgan yerlarni suv bilan ta'minlash uchun quduq qazish, sug'orish tarmoqlarini tiklash, elektr tarmoqi

tortish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish borasida ijarachi yoshlarga ko'maklash bo'ladi. Shuningdek, Soliq kodeksiga muvofiq, tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etilgan hamda qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilgan yerlar besh yil muddatga yer solig'idan ozod etiladi.

Elektron auktsion savdolar orqali ijaraga yer olgan yoshlar o'zlarini turgan daftarlardan chiqarilmaydi hamda ular qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish huquqini saqlab qoladi. Yoshlarning yerdan samarali foydalanayotgani, ekin turlari va olinayotgan mahsulotlar Yozhlar ishlari agentligining "Yosh fermerlar" platformasi orqali nazorat qilib boriladi.

Shu o'rinda yana bir taklifi o'rta ta'lim uchun hamda bugun mamlakatimizning turli hududlarida ayrim fuqarolar tomonidan dehqon xo'jaligi sifatida qayd etilib, aslida, yaylov sifatida foydalanilayotgan yuzlab gektar yer mavjud. Ular yolg'itib soliq ham to'lamaydi. Agar shu yerlar dehqonchilik, bog'dorchilik yoki chorvachilik qilmoqchi bo'lganlarga loqal 10 sotixdan ajratib berilsa, undan foydalanish samaradorligi hamda yosh oilalarning daromadi yanada o'tgani bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur qaror bilan yigit-qizlarimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda sotsializmga bo'lgan janjiri qamrab oluvchi yangi tizim orqali qo'llab-quvvatlanib, bandligi ta'minlanadi va turmush farovonligi oshiriladi. Pirovardida ular yetishtirayotgan oziq-ovqat mahsulotlari xalqimiz dasturxonini to'kinligiga xizmat qiladi.



www.yuz.uz

yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Maqolangizni o'qidim

## BIZ QUSH EMASMIZ, BIROQ...

va bo'lishi ham mumkin emas" hikmatini hayotiy e'tiqod deb bilganlar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin deb hisoblaganlar. Shu maqsadda yaxshi niyatda yetimisha yaqin yigit-qiz Germaniyaga o'qishga yuborilgan. Afsuski, qo'l ostidagi xalqning ziyoli bo'lishini, uyg'onishini istamagan mustabid zolimlar turli bahona va tuhmatlar qilib, yetimish qaldirg'ochning parvoz qilishiga yo'l qo'ymay, qanotini qayirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mam-lakatimizda Uchinchi Renessansi ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishi mumkin edi. Afsuski, mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bunga yo'l bermadi.

Mana, bugun jadid bobolarimiz orzu qilgan mustaqil yurtda yashayapmiz. Ta'lim olish uchun shart-sharoitlar yetarli. Oliy ta'lim muassasalaridan beshtasiga hujjat topshirish, qizlar uchun esa magistratura bosqichini bepul o'qish imkoniyati, turli imtiyozlar so'zimiz isboti. Ammo bulardan qanchalik unumli foydalana olayapmiz?

Yaqinda buvim bilan gaplashib, uzoq qarindoshlardan birining mendan ikki yosh kichik o'g'li haqida noxush xabar eshitdim. O'sha bola maktabda a'loch bo'lgan, uni bitirmay turib, universitetga davlat granti asosida o'qishga kirgan. Lekin maktabni bitirmaganini uchun uni qaytarishgan. Maktabni bitirib, matematika fakultetiga yana budget asosida o'qishga qabul qilingan. Birinchi kursda chiroyli talaba yigit bo'lib yurgandi. Ko'rgan odamning havasi kelardi. Afsuski, oilaviy sharoiti og'irliq tufayli Qozog'istonga ishlashga ketibdi. O'qishini sirtqida davom ettirayotgan



ekan. Ilmga chanqoq bo'yigitga juda achindim.

O'qishga kirib, OTMga nomiga borib-kelib yurganlarning ham ko'pini ko'rganmiz. Kimdir hech narsani o'ylamasdan o'qishni istaydi, yana kimdir shunday imkoniyat bo'lsa-da, undan foydalanmaydi. Ba'zilar hatto oilaviy holat sabab o'qish uchun hujjat topshirib ham ko'rmaydi.

Yana bir jiddiy masala — jamiyatimizda shakllanib qolgan noto'g'ri qarashlar. Oxirgi yillarda qizlar ta'limiga jamiyatimizda ijobiy munosabat shakllangan bo'lsa-da, hali-hamon ularning o'qishidan ko'ra turmush qurishiga xayrixoh yordamlarimiz yo'q emas. Men tengi qo'shni qizning orzulari bilan hech kim qiziqmadi: maktabni bitirishi bilan uzatildi.

Keyin bilsam, bu qaror uning buvisidan chiqqan ekan. Aytishlaricha, ko'p o'qigan qizning turmushga chiqqisi kelmay qolar emish...

Aslida, ta'limning ahamiyatini tushungan qiz o'qiydi va o'qimishli, bilimli farzandlarni tarbiyalashni istaydi. Shuningdek, ayrim yurdoshlarimizning "O'qigan boy bo'lmaydi" qabilidagi fikri ham farzandlarni o'qitishga to'siq bo'lyapti. Demak, jamiyatimizda ilmi insonlarga nisbatan avvalgiday yuksak hurmat-e'tiborni shakllantirish zarurati bor.

Hozir ta'limga, ilm-fan vakillariga e'tibor oshgan. Lekin ilmning ahamiyati, ertamizni ilm-fan rivojlanishiga qila olmasligimizni jamiyatimiz to'liq anglab yetishi kerak. Bu borada ota-onalar ham farzandlari ta'lim-tarbiyasini o'quv muassasasiga butunlay topshirib qo'ymasdan, bugunning tili bilan aytganda, ularga motivatsiya bersa, ustozlarning ulug'ligini va uning o'qishi nafaqat o'zi, balki yurt kelajagi uchun kerakligini tez-tez eslatib tursa, nur ustiga nur bo'lardi.

Farzandni bir polapon desak, uning ulg'ayib, yuksaklarga parvoz qilishiga ota-ona ham, ustozlar ham birdek mas'ul. Ana shu haqiqatni anglashimizga ehtiyoj bor.



Gulnur AMETOVA, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Ba'zi so'zlar borki, biri aytilganda ikkinchisi ko'z oldimizga keladi. Masalan, qush desak, xayolimizda osmon ham gavalanadi. Ammo tabiatda uchmaydigan qushlar ham ko'p. Uyda boqiladigan parrandalar, tuyaqushlar, pingvinlar... Bular biz biladiganlarimiz, xolos. Fanda ularning evolyutsiya jarayonida uchish qobiliyatini yo'qotgani ta'kidlanadi.

Ajdodlarimiz ilm-fanda buyuk kashfiyotlar qilib, ikki bora Renessansga asos solgan edi. Masalan, Mirzo Ulug'bek o'z rasadxonasida 1018 ta yulduzni o'rganib, "Zij" asarini yozib qoldirgan. Keyin nimadir bo'ldi-yu, biz ularga o'xshamay qoldik. Ilmga chanqoqlik, yaratuvchanlik qobiliyati qayergadir yo'qoldi. Boshqa xalqlar esa bobolarimiz qoldirgan ilmiy merosni o'rganib, olamshumul yangiliklar yaratmoqda.

Ba'zilar turg'un holatda qolishimizga xonliklar davridagi urushlar, sobiq itifodiy zamonidagi og'ir vaziyatni sabab qilib ko'rsatadi. Albatta, ushbu omillarning ta'siri yo'q emas. Lekin bugun-chi? Yurtimiz tinch, imkoniyatlar yetarli. Nega shunda ham fazoga uchmayapmiz?

"Yangi O'zbekiston" gazetasida (2024-yil 16-mart) chop etilgan "Biz fazoga qachon uchamiz?" sarlavhali maqolada bizni qiynayotgan savol tahlil qilingan. Muallif qanotimizni qayirib turgan kamchiliklarni birma-bir sanab chiqadi. Orzu-havas, to'y-hasham, ta'lim va tarbiya uyg'unligi yo'qligi...

Afsuski, mazkur muammolar anhadan buyon jamiyatimizning og'irliq nuqtasi bo'lib kelmoqda. Bir asr avval ham jadid bobolarimiz o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflet botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan. Buxoriyning "Ilmdan boshqa najot yo'q

## Inson qadri uchun

Xalqimizda "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan hikmat bor. Uning zamirida har bir o'g'il-qizning yurish-turishi, ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lmaslik, mehr-e'tibor ko'rsatish kabi odob-axloq xislatlari mujassam. Bu yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish naqadar muhim ekanidan dalolat. Loqaydlik, yoshlarni o'z holiga tashlab qo'yish ko'plab ko'ngilsizliklarga olib kelishi tabiiy.

## Bo'lgan voqea...

Mahallamizda Xolmat aka degan traktorchi yashardi. Besh qizdan keyin "qo'chqordek" o'g'il ko'rdi. Bu xursandchilikka butun mahalla esh bo'ldi.

Shokir oilada aytgani-aytgan, degani-degan qabilida o'sib-ulg'aydi. Ishga bo'linib bormay, haftalab uyga kelmaslik, begona kimsalar bilan oshno bo'lish odatini chiqardi. Mahalla kayvonilari o'rta tashib, tartibga chaqirmoqchi bo'lganda, onasi ro'yixushlik bermadi. "Esi kirib qolar", deb ko'pning ra'yini qaytardi. Nazoratsizlik, e'tiborsizlikdan ruhlangan o'smir o'g'irlik va qimor o'ynashni odat qildi. Qurilish brigadiri uning kirdikorlarini otasiga bayon qildi, bu gap unga malol keldi.

Olimlarning aniqlashicha, ayrim ota-onalar bir sutkada farzand tarbiyasini uchun faqatgina o'n ikki daqiqa vaqt ajratarkan. Bu, asosan, dasturxon atrofiga o'tirganda, bola ko'chaga chiqayotganda, maktabga ketayotgandagi beriladigan kichik tanbehlar ekan, xolos.

Mamlakatimizda bu boradagi ish tutumi o'zgardi. Milliy qadriyatlariga asoslangan ta'lim-tarbiyaga har qachongidan-da muhim bo'lgan vazifalardan biri sifatida e'tibor qaratiyapti, ilg'or tajribalar, yangi tashabbuslar qo'llab-quvvatlayapti.

O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatida dunyo hamjamiyatida o'z o'imi va mavqeiga ega. Nafaqat yurtimiz, balki dunyo miqosida ham ilm-fan, sport, zamonaviy texnika va texnologiyalar sohasida olamni lol qoldirayotgan

yagona yondashuvning namunaviy tajribasini shakllantirishga bag'ishlangan yoshlar forumi bo'lib o'tdi.

Bu bejiz emas, albatta. Joriy yil boshida davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yurtimizdagi 4 million yoshni 4 ta sektor kesimida 6 ta huquq-tartibot va mudofaa organiga o'taliqqa birlashtirib, yangicha yo'nalishda ishlash tizimi belgilab berilgan edi. Shu kunga qadar hamkor tashkilotlar bilan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib, yoshlar hayotida sezilarli o'zgarishlar bo'y ko'rsatdi.

Har bir yosh hayot tarzi bilan yaqindan tanishish, muammolarini eshitib, fikrlarini hisobga olib, talab va takliflari asosida qarorlar qabul qilinaypti. "Yoshlar balansi" asosida barcha davlat idoralari, korxonaga, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yoshlarni birlashtirib, ularga har tomonlama ko'maklashib borishga huquqiy asos yaratib berildi. Yoshlar "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratilib, har biri bilan yakka tartibda ishlash amaliyoti joriy etildi.

Bu yo'nalishda Farg'ona viloyatida e'tirof etish kerak bo'lgan jihatlari ko'p. Yoshlar bilan xonadonbay, onlayn subhatlar o'tkazilib, aniqlangan muammolari hal etish bo'yicha

— "Mahalla yetilligi" hamkorligida yoshlarning muammolari va qiziqishlarini aniqlash maqsadida xonadonbay xatovlar o'tkazildi. Nafaqat bandlik va ijtimoiy holati,

tuyg'ular shakllantirishiga erishildi. Yoshlarning muammolaridan kelib chiqib, bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'rgatish, ular uchun infratuzilma obyektlarini yaratish,



## BO'SH PAYTDA EMAS, har daqiqada shug'ullaniladigan masala

— Qimorni o'g'il bola o'ynaydi-da, — deb e'tibor bermadi, to'g'ri xulosa chiqarmadi. Avvaliga tuxum, tovuq, keyinroq qo'y o'g'irlab qo'lgaga tushdi. Sud hukmiga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilinganida esa kech bo'lgandi.

Shokir shu ketgancha o'n yildan ortiq qishloqqa yo'lamadi. Farzand qo'lda xasta bo'lgan ota-onasi yorug' olamdan ko'z yumganida ham u qamoqxonada edi...

Bu voqeaning bo'lib o'tganiga chorak asrdan oshdi. Ammo mahallamizda bo'layotgan to'y-hasham va jamoatchilik orasida hanuzga qadar ushbu voqeadan to'g'ri xulosa chiqarish, yoshlarning yurish-turishi, odob-axloqi, ta'lim, kasb-hunar o'rgatishiga hamma birdek mas'ul ekanini bot-bot takrorlanadi.

## Hayot-mamot masalasi

Ma'rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Chunki ta'lim va tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan har qanday jamiyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ko'pchilikka ayon. Shunday ekan, tarbiya masalalari bilan bo'sh paytda emas, har daqiqada shug'ullanish zarur va shart.



minglab yoshlarimiz hayot yo'li va ish amallari ko'pga ibratli.

## Har bir bola o'taliqqa olindi

Farg'onada o'taliqqa olingan yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etish bo'yicha

"yo'l xarita"lari tasdiqlandi. Aniqlangan ijtimoiy va maishiy muammolari "mahalla yetilligi" hamda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish choralari ko'rilmoqda.

Birlashtirilgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy, sport, harbiy, madaniy hayot bilan bog'liq ko'plab ishlar qilinaypti. Mahallalarda kichik kutubxona, kitob va ma'naviyat burchaklari tashkil etildi.

Joriy yil boshida davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yurtimizdagi 4 million yoshni 4 ta sektor kesimida 6 ta huquq-tartibot va mudofaa organiga o'taliqqa birlashtirib, yangicha yo'nalishda ishlash tizimi belgilab berilgan edi. Shu kunga qadar hamkor tashkilotlar bilan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib, yoshlar hayotida sezilarli o'zgarishlar bo'y ko'rsatdi.

balki iqtidori, xohish-istagidan kelib chiqib, har bir yoshning qiziqishi o'rganildi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyati boshqarmasi boshlig'i Muhammadamin G'aniyev. — Mahallalarda qanday loyiha va tadbirlarni tashkil etish taklifini bevosita yoshlarning o'zi bermoqda. O'tkazilgan xatlov davomida 916 ming yosh haqidagi ma'lumotlar shakllantirilib, "Yoshlar balansi" platformasi orqali to'liq elektronlashtirildi. O'tgan qisqa vaqt davomida 4 mingdan ortiq yosh kafolatli ish o'rinlariga joylashdi, 1131 nafari kasb-hunarga o'qitildi, 16 ming 289 nafariga turli ijtimoiy-iqtisodiy ko'mak ko'rsatildi.

Birgina Farg'ona viloyatida 325 ming yosh huquq-tartibot va mudofaa organlari hamda ularning quyi bo'limlari xodimlariga taqsimlanib, shaxsan o'taliqqa olinishi va kafil bo'lishi orqali ularda vatanparvarlik, daxldorlik va qonunga hurmat kabi ezgu kam ta'minlangan oilalarda yashovchilarni aniqlab, ijtimoiy ko'maklashish orqali hayotga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilmog'da.

O'taliqdagi yoshlar bilan kuzatilayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, o'zaro hamkorlikni mustahkamlash borasida o'rtog'lashayapmiz, tajriba almashayapmiz, — deydi Milliy gvardiya Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i polkovnik Shavkatjon Akbarov. — Ayni kunda viloyatdagi 115 ta mahallada istiqomat qiluvchi 30 ming 434 yosh bilan tizimli ishlashni tashkil etish maqsadida ishchi guruh tuzildi, mas'ullar belgilanib, tegishli hujjatlar yaratildi. Mahallalarga Milliy gvardiyaning 374 xizmatchi va xodimi buyruq asosida birlashtirildi. Ular mahalladagi yoshlarning yashash, o'qish, ish joyiga bevosita kelib, turmush tarzi, sog'lig'i, o'qish va ishlash uchun shart-sharoiti hamda oilaviy ahvolini o'rganib, ma'naviy ko'maklashib,

vatanparvarlik tuyg'ularini targ'ib etib kelyapti. Harbiy qismlarda yoshlar uchun ochiq eshiklar kuni, huquqiy targ'ibot, vatanparvarlik, "Milliy gvardiyada bir kun" tadbirlari o'tkazildi. Farg'ona va Qo'qon shahri, O'zbekiston, Beshariq va Oltiariq tumanlaridagi bittadan maktabda "Milliy gvardiya sinflari", Bag'dod tumanida "Manguberdi idoshlari" maktabi Milliy gvardiya o'talig'iga o'ldi. "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi davomida 11 yosh Milliy gvardiyaning 5 mingdan ortiq kitob fondiga ega kutubxonasiga a'zo bo'ldi. Albatta, erishilgan yutuqlarimiz ko'p. Bu mas'uliyatli ishlarda nafaqat huquq-tartibot organlari, balki ota-ona, mahalla, ta'lim tashkilotlari, ishlab chiqarish jamoalarining ham o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Rustamjon Ne'matjonov harbiy xizmatni o'tab kelgach, somsapazga yordamchilik qilib kun o'tkazib keldi, topgani ro'zg'ordan ortmaydi. Oila hayot tarzi bilan tanishgan Milliy gvardiya vakillari Rustamni qo'riqlash xizmatining soqchilik vazifasiga ishga qabul qildi.

Oynurbegim Akbarova Farg'ona shahridagi 45-umumta'lim maktabining 10-sinfida o'qiydi. Oila ijtimoiy himoyaga muhtoj. Uning boshqa yoshlar qatori zamonaviy noutbukda mustaqil til o'rganishga ishtiyiqi baland. Biroq oilaning iqtisodiy ahvoli uni xarid qilish imkonini bermayotgandi. Davlat soliq inspeksiyasi bu qizni o'taliqqa olib, unga zamonaviy noutbuk sovg'a qildi.

— Bizga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar hayotda o'rimimizni topishda o'ziga xos imkoniyatlar bermog'da, — deydi Qo'qon shahri "O'rmonbog" mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan Nabijon Nazirov. — Novvoylik qilaman, lekin mustaqil ishlash uchun joy masalasida ayrim qiyinchiliklarga duch kelayotgandim. Vakillar bilan uchrashuvda mahallamizdagi eski binoni yaqincha foydalanish uchun berishsa, novvoyxona ochib ishlabchiqilgimni aytdim. Istagim qanoatlantirildi. Ayni kunda aholiga xizmat qilish bilan birga, mahallamizdagi yoshlarga hunar sirlarini o'rgatayapman.

Dildora Mamajonovaning ota-onasi nogiron. Shunga qaramay, ota-ona ikki farzandi kamoli yo'lida halol mehnati bilan ro'zg'or tebrataypti. Dildora 10-sinf, singlisi 3-sinfda o'qiydi. Ota-onasi bilan birga bir xonali uyda yotish, ovqatlanish, dars qilishlariga to'g'ri keladi. Oila bo'lgan huquq-tartibot organi vakillari ularga munosib shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida chala qolgan qurilish ishlari tugallab, shinam xona jihozlab berdi. Qizlar uchun yotoq anjomlari, dars tayyorlash uchun stol-stul, gilam va pardalar olib berildi. Dildora "Najot ta'lim" o'quv markazida til o'rganishga jalb etildi. Bundan tashqari, xonadon hovlisi ta'mirlandi.

Sirasini aytganda, yoshlar baxtu iqbol yo'lidadagi islohotlar minglab yigit-qiz ko'ngliga quvonch va shodlik tuyg'ularini olib kirmog'da. Hayotda o'z o'rinlarini topish, har jihatdan yetuk va barkamol bo'lib voyaga yetishlarida yangi imkoniyat eshiklarini ochmog'da.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Iftixor



Karima ZARIPOVA:

## “FAQAT O'Z XALQIMGAGINA XIZMAT QILAMAN”



“Ayrim amaldor shaxslar o'sha paytda “O'zbeklarga sirk tashkiloti kerak emas” degan gaplarni ham aytgan. Ammo buvimiz o'z niyatini amalga oshirishga qat'i kirishgan. O'zbekistonning sirk san'atiga mehr qo'ygan, kelajakni oldindan o'ylaydigan rahbarlari buvimizga har tomonlama yordam bergan”.

Uch tilda chop etilgan “Dunyoni lol qoldirgan san'atkorlar sulolasi” kitobidan olingan bu jumlar Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji rahbari Karima Zaripovaga tegishli. Bobosining ism-sharifini olgan, uch yoshidan otga mingan Karima opaning hayot yo'li, mehnat faoliyati ibratga arzigulik. Zero, yosh sirk artistlarining Parijda o'tgan xalqaro festivalida chavandozlik mahoratini namoyish qilib, oltin medalni qo'lga kiritganida u 15 yoshda edi.

Munajat MO'MINOVA,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

## KECHIKKAN TUG'ILISH

Yaratgan yana bir hafta umr berganida Karim Zaripov intizorlik bilan kutgan nevarasini ko'rishga muvaffaq bo'lardi. U o'g'il kutgan, tug'ilajak chaqaloqning sunnat to'yini tezlikda o'tkazib yuborish uchun hamma narsani taxt qildirib qo'ygandi. Karim qiziqning vasiyati bilan chaqaloq qiz tug'ulsa-da, bobosining ism-sharifini oldi — Karima Zaripova!

Boshqa nevaralarga qaraganda sho'x va qo'rqmas bo'lgan Karima uch yoshida sirkni tanidi, otga mindi. Faxriddin aka qizi chavandoz bo'lishini xohlamasdi. Turmush o'rtog'i Xolidaxon aya ko'rgan qiyinchiliklarning o'zi yetarli edi unga.

## OTLAR ILA O'TGAN OTASHIN YILLAR

Sirkda ishlash o'ta mashaqqatli bo'lgani uchun sirk artistlari barvaqt nafaqaga kuzatiladi. 37 yoshida sirkni tantanali tarzda tark etgan Xolida opa uyda o'tira olmay, muxlislarini xushnud etgisi kelaverdi. 1966-yili Feodosiyadagi baxtsiz hodisa sabab u chavandozlik bilan xayrlashishga majbur bo'ldi. Tryuk bajarayotgan Xolida opa ot ustidan sakrab, olov halqa ichidan o'tib, yana ot ustiga qaytishga chog'lanayotganda birinchi qatoridagi tomoshabinlardan biri o'midan turib ketdi-yu, jonivor hurkib, yo'nalishini yo'qotdi. Chavandoz ayol pastga, tomoshabinlar tomonga yonboshi bilan yiqildi. Boshi aylanib, o'ng qo'lini ko'tara olmay azoblanayotgan bemorni shifoxonaga, operatsiya stoliga yotqizishdi. Qo'lidagi uzilib ketgan tomir ulanib, teri ichi oqqan qondan tozalandi. Toshkentda qaytadan davolanib, ko'p dard chekdi.

Karima onasining qadri oti Samboga bog'lanib qolgan, ot xastalanib, kolxoza topshirilganidan keyin oppoq, ingliz va arab otlari nasldan bo'lgan bir do'nun unga yoqib qoladi. Uni balandlarga parvoz qilsin deb dastlab Nebisto — Osmonbek, keyin sal o'zgartirib, Nebosklon — Ufq deb nomladi. Zero, Ufqning yer bilan osmon birlashadigan chiziq ekanidan kelib chiqib, sevimli oti uni sirk bilan bir umrga birlashtirishini xohlardi. Endi uning bor boyligi shu ot edi. Unga ega bo'lish uchun hatto ota-onasi sovg'a qilgan uyini ham sotib yubordi. Ufqni esa 50 ming so'mga xarid qildi.

O'sha paytda hazilakam bo'lmagan bu pulga xohlagancha yashash mumkin edi. Lekin Karima Ufqni deb uysiz va joyisiz yashashga ham rozi bo'ldi. Turmush o'rtog'i bilan sirkdagi artistlarning kiyim almashtiradigan xonasida yashay boshladi. Yolg'iz damlarida oti yagona sirdoshiga aylandi. Go'yo gaplarini tushunadigandek boshini sarak-sarak qilib jim turishi oti unga yanada yaqinlashtirar edi. Ufq bilan ishlash Karimaga ilhom bag'ishlar, otga minganida uning yurak urishi, haroratini sezar, ot ham egasining mehriini his qila olardi. Shuning uchun Ufqdan ayrilganida yaqin kishisidan ayrilganday azoblendi. Sahnada o'ynab turib, o'zining qo'lida jon bergan oti gursillab



yiqliganda, Karima hayron bo'ldi. Bo'lishi mumkin emasdi. Axir u sal og'rib qolsa yoki biror joyi lat yesa, darrov sezar edi-ku? Otining ko'zlari nirsizlanib, sohibasi bilan vidolashar ekan, meni tashlab ketma, deganini biladi... Ko'zini ochsa, shifoxonada ekan. Tuzalib chiqqach, u sirkni tark etdi. Chunki Ufqsiz manejni tasavvur qila olmasdi.

Karima Ufq bilan “Bahor valsini”, “Arab tangosi”, “Andijon polkasi” raqsalarida o'qishlarga ko'mildi. Uni o'qishlaganlar orasida Moskva



sirk rahbarlari va xalq artisti Irina Bugrimova ham bor edi. Bir payt uni Moskvada, butunittifoq markaziy sirk boshqarmasida tan olmagari Karjiskiy va Sebastyanov endi uni muvaffaqiyatlari bilan samimiy qular edi. Turmush o'rtog'i ham sirk artisti, endigina bir yoshli o'g'li ham yonida bo'lgan Karima ulami hangu mang qilib qo'ygandi. “Sirkimiz eshiklari siz uchun hamisha ochiq”, deb yuborganlarini bilmay qolishdi.

Biroq Zaripovlar dunyoning qaysi burchagiga bormasin, hamisha Vatan mehriini his etib, unga talpinib yashadi. Karimani nafaqat Moskva sirkiga, balki boshqa chet ellarda ham necha



marta ishga taklif etishdi. Karima ham o'z ona vatanidan ayro, boshqa yurtda yashab, ishlashni tasavvur qilolmasdi. U boshqa yurt san'atkorlari safida ishlash, milliylikni, o'zbeklarga xos bo'lgan an'analarni unutishni istamasdi.

## STUDIYA OCHISHGA UNDAGAN MAQSAD

Bir kun tushida u bobosini ko'rdi. Karim qiziq yosh bolalarga chavandozlikni o'rgatayotgan ekan. Ko'ngli yorishib uyg'ondi. Bir paytlar bobosi orzu qilgan sirk kollejida o'qituvchi bo'lishga qaror qildi va shu yerda ishlash boshladi.

Bu yerda Karimani o'qituvchi bo'lib ishlashning o'ziga qoniqtirmas, Zaripovlarga xos shijoat yangi g'oyalarga undar edi. Nihoyat, kollej huzurida “Karima” bolalar sirk studiyasini ochdi. Besh yoshdan o'n besh

muassasada 150 o'rinli konsert zali, kutubxona, 40 o'rinli oshxona va 75 ta o'quv xonasi mavjud. Kutubxonada 10 mingdan ortiq darslik va musiqiy adabiyot fondi jamlangan.

Prezidentimiz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida Toshkent davlat sirk faoliyatini yaxshilash masalasiga to'xtalib o'tdi. Sirk san'ati uchun kadrlar tayyorlashda ta'lim va amaliyotni uyg'unlashtirish maqsadida Toshkent davlat sirk yonida 300 o'rinli o'quv binosi, 200 o'rinli yotoqxona barpo etish rejalarini muhokama qilindi.

Shuningdek, Toshkent davlat sirk binosini ta'mirdan chiqarish bo'yicha ham tegishli chora-tadbirlar ko'riladigan bo'ldi. Buning uchun Karima opa cheksiz quvondi. Prezidentimizning 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida juda ko'p takliflari inobatga olinganidan ich-ichidan minnatdorligini bildirdi. Shu bilan birga, bobosi tashkil etgan muassasa juda qadrdon ekani, o'ziga faizlilikni aytib, shu yerda Sirk va estrada san'ati akademiyasi tashkil qilishdek ezuq maqsadi borligini ham yashirmadi. Opa estrada va sirk san'atini o'rgatish uchun ikki yilni juda kam muddat hisoblaydi. Loqaq oliyog' bo'lsa, estrada aktyori va estrada rejissyorligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlab berishga o'z jamoasining salohiyati yetarli ekanini kuyinib gapirdi.

— Biz juda ko'p bilim berishimiz kerak. Ikki yil nima, yarim mahsulotdek gap. Bitiruvchilarning diplomiga imzo qo'yayotib, ularni ketkazgim kelmaganidan qo'llarim qaltiraydi. Xayriyatki, o'qituvchi sifatida 50 foiz o'quvchilarni o'zimga kelyapti, kadr bo'lib qaytaryapti. Boshqa joyda emas, aynan shu yerda ishlagim kelyapti, degan gaplardan boshim ko'kka yetadi, — deydi opaning ko'ngli bo'shab. — Buvimiz ham bolalarni mana shunday mehr bilan tarbiyalagan. Toshkent davlat sirk bilim yurtining rahbari ekan, o'quvchilarini, kerak bo'lsa, o'z hisobidan kiyintirib, o'qitgan. Buvamning sirk san'ati bo'yicha o'sha paytdan qolgan o'quv dasturlari nihoyatda katta yordam bermoqda.

Karima opaning bu dargohda ish boshlaganiga roppa-rosa chorak asr bo'ldi. Shundan 19 yilni direktorlik vazifasida o'tyapti. Yosh avlod uchun o'zi ham sirk san'atiga doir qirqa yaqin dastur ishlab chiqdi. To'g'risi, kollejda boshqa kollejlarda uchramagan ijod muhiti, o'zbekona tarbiya ustuvor ekaniga duch kelganimizdan hayron bo'ldik. Aslida, har qancha zamonaviylik shu yerda bo'lishi kerak edi, nazdimizda. Bunga javoban Karima opa shunday dedi:

— Ba'zi yoshlar osongina artist bo'laman, aktyor bo'laman, deb o'ylaydi. Bir-ikki yo' o'qiganidan keyin bilishadiki, bu yerda chidaganlarga o'qiydi. Bizga ham tanangni o'zingga bo'ysundir, yolg'ovlig-u tanballikni yig'ishtirib, hamisha harakatda bo'l, shunda har qanday mushkullikni yengishing mumkin, deb o'rgatishgan. Men ham o'quvchilaringa sirk



san'atining yo'lini tutdinglarmi, bu san'atning ildizigacha kirib borish kerak, deb ko'p bor aytaman. Bolam, bolam, deb boshini silyaman, vaqti kelsa, kuyimayman. Shunday bo'lsa-da, meni yaxshi ko'rib, huzurimga oshiqib kelishlaridan xursand bo'laman. Imtihonlarda o'zlarini yaxshi ko'radigan sirk artisti sifatida mening hayotimni ham gapirib berishsa, xursand bo'lib ketaman. Mendan ibrat o'lyaptimi, demak, namuna bo'lishga harakat qilaman. Turli maktablardan kelgan yig'it-qizlarni kollejning qoligiga solib iltis uchun bir yil qiyinchilik bo'ladi. Alohida



forma, alohida talablarimizga ko'ngan otana bolasini bu yerda o'qitadi. To'g'ri, chet ellarda ishlayotgan qizlarim orasida o'zbeklar yo'q. Bunga butun san'at, shu jumladan, sirk ham qizlarga emas, degan noto'g'ri qarash sabab. Ko'pchilik sirkda qolib ishlayapti, hamkorligimiz yaxshi. Shartnoma asosida o'quvchilarning o'sha yerda ish o'rganadi. Nasib qilsa, ularning barchasi sirkda o'zining yo'nalishida ishlab qoladi. Bir shogirdim ayollar polosi sporti bo'yicha murabbiylik ham qilyapti. Kerakli kadrlarni berayotganimizdan xursand bo'lib ketaman.

Ayni paytda kollejda sirk san'ati, xalq o'yinlari (dorbozlik, polvonlik), estrada aktyorlik, qo'g'irchoq san'ati, estrada xonandalik, estrada raqs, estrada cholg'u ijrochiligi bo'limlarida 160 nafar yig'it-qiz 9 ta mutaxassislik bo'yicha tahsil o'lyapti.

## MASHAQQATLAR SAMARASI

Halol mehnat, fidoyilik, albatta, qadr topadi. Professor Karima Zaripova “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist” unvoni, “Do'stlik”, “Mehnat shuhrati” ordenlariga loyiq ko'rdi. Zero, opa kollej rahbarligidan tashqari turli musobaqalarning ochilish marosimi uchun minglab bolalarga raqslar o'rgatdi, bayram dasturlarini sahnalashtirdi, konsertlar uyushtirdi. Zero, 1985-yili Mannon Uyg'ur nomidagi San'at

institutining rejissyorlik fakultetini tamomlab, sirk artistligi, chavandozlikdan tashqari bayram tomoshalarini sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida ham faoliyat boshlagan.

Vazirlar Mahkamasining farmoyishi bilan o'tgan yilning yakunida O'zbekiston xalq artisti, o'zbek professional sirk asoschisi — Karim Zaripovning 130 yilligi va sirk san'ati bilim yurti tashkil etilganining 90 yilligi keng nishonlandi. Ayni munosabat bilan O'zbek davlat sirkida estrada va sirk kolleji xodimlari tomonidan tashkillostirilgan, talaba va professional sirk ustalari ishtirokida konsert dasturi bo'lib o'tdi. Unda Karim Zaripovning hayot yo'li ta'riflashirilgan sahna ko'rinishlari, akrobatik tomoshalar bilan yoritildi. Dorboz, akrobat, raqqos, ko'zbo'ylog'ich, maxsaraboz, chavandozlar, o'rgatilgan hayvonlar tomoshasi namoyish etildi.

Munosib davomchining yana bir orzusi — bobosiga bag'ishlanajak filmni ko'rish. “Sirkda Karim Zaripov hayotiga bag'ishlangan kichkina spektaklimizni tomosha qilib yig'lagan odamlar filmni ko'rsa, qanday tasavvurga ega bo'lishini o'ylab ko'ravering”, deya suhbatimizni yakunladi opa.

Subhatdan so'ng ham, hozir ham bizni to'liqlantirgan jumlarimizni sizga ilinmoqchimiz. Zero, bu chinakam vatanparvarlikning amaldagi ifodasi: “Amerikada meni televideniye, radioga chaqirishdi. O'tlar bilan ishlaydigan ekan katta sulola vakili deb nihoyatda hurmat bilan qarashdi. Boshqa ko'plab chet davlatlardan ham takliflar bo'lgan. Iordaniyalik qizlarimizni sirk san'ati bo'yicha ko'tarib ber, ayollarga dars ber, degan. Loqaq 3-4 yilga, deyishgan. Biroq men ketmayapman-ku, vatanimni sotmayapman-ku. Zero, bobomda ham vatanparvarlik kuchli bo'lgan. Boshidan do'ppi tushmagan. Hech qayerga ketmagan. Men xalqimga xizmat qilishim kerak, degan. Shunday ekan, men ham o'lgunimcha faqat xalqimga xizmat qilaman”.

## O'ZBEK SIRKI BUTUN DUNYONI LOL QOLDIRISHDA DAVOM ETADI

Darhaqiqat, o'zbek sirk san'ati katta tarixga ega, uning an'analari o'ta chuqur va poydevori mustahkam. Chunonchi, ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo Samarqandda xalq sayillarida boshqa san'atlar qatori niqoblarda tomosha ko'rsatuvchi maxsarabozlar mahoratidan hayratda qolgan rost. O'sha paytda ayiq, echki, maymun va fil o'ynatish juda rivojlangan ekan. Ulug' o'zbek allomalari Alisher Navoiy, Mirzo Bobur ham o'z asarlarida saroylarda va ochiq maydonlarda maxsaraboz, akrobat va gimnastlar, dorbozlar mahorati haqida hikoya qilganlari ham chin.

O'zbek sirkchilari 1999-yilda Dubayda, Saratovda, 2000-yilda Xitoyda, 2001-yilda Belgiyada bo'lib o'tgan xalqaro festivallarda muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinini o'rinlarni egallagan. Sirkchilarimizning sa'y-harakatlari natijasida o'zbek sirkiga xos turli nomer va attraktsionlar xalqaro sirk dasturlaridan o'rin egalladi.

So'nggi yillarda chavandoz Zaripovlar sulolasi, uning nevarasi Ulug'bek Zaripov boshchiligidagi Germaniya, Avstraliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Hindiston kabi 20 dan ortiq davlatda bo'lib, o'zbek sirk mustaqillik davrida erishgan ijodiy yutuqlarni jahon uzra namoyish etmoqda.

Karima Zaripova esa o'zbek xotin-qizlariga nisbatan “ojiza” va “zaifa” tushunchalarini yo'qqa chiqargan ayol, buvisi — Muboraxxon aya, onasi — O'zbekistonda birinchi ko'zbo'ylog'ich ayol Xolida opadək jasoratli qizlarni tayyorlab berish yo'lida sidqidildan xizmat qilyapti. Shunday ekan, bu borada opaga mustahkam iroda, kuch-quvvat tilab,

20-aprel — Butunjahon sirk kuni bilan samimiy quytaymiz.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasini

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1222. 44595 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbachi muharrir: Munajat Mo'minova  
Musahih: Asliddin Abdurazaqov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy